

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası

Tursunova Gulhayo

Bog'lanishli nutq va uni maktabda egallash usullari.

5141600 - Boshlang'ich ta'lim, tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: o'qit. M.Hazratqulov

Malakaviy bitiruv ishi Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2014-yil 29-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi
(bayonnoma № 10).

Kafedra mudiri: dots.Shodiyev F.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2014-yil ____iyundagi majlisida
himoya qilindi va _____foizga baholandi (bayonnoma № ____).

YaDAK raisi: _____

A'zolari: _____

Samarqand – 2014

REJA:

I.KIRISH

II.ASOSIY QISM

I BOB. O'qish darslarining maqsad va vazifalari, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati

1.1.O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashini shakllantiruvchi omillar

1.2.O'qish darslarida qo'llaniladigan metod va usullar

1.3.Bog'lanishli nutq va uni o'stirish vazifalari

II BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stiririshda badiiy adabiyotni o'qitishning o'rni

2.1. O'quvchilarni badiiy nutqqa o'rgatish bo'yicha ish mazmuni

2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy adabiyotni hikoya qilib berishga o'rgatishda maxsus usullardan foydalanish

2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ertaklarni o'qitish orqali bog'lanishli nutqini o'stirish

2.4.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini o'stirishda inretfaol usullardan foydalanish.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda mustaqil Respublikamiz sharoitida xalq ta'limi o'ziga xos rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Bu o'ziga xoslik, eng avvalo, ta'lim-tarbiya mazmunini milliylashtirish, ya'ni o'zimizning juda boy o'tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimizda o'z mohiyati bilan yuksak insoniy-axloqiy mazmunga ega bo'lgan jarayonda yosh avlodni o'qitish baxtiga muyassar bo'ldik.

Yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, avvalo, bu sifatlarni o'zimizda mujassamlashtirishni talab qiladi¹. Shu bilan birga ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni ham taqozo qiladi. Eski uslub bilan vazifalarni amalga oshirib bo'lmaydi. Ko'pgina olimlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, biz bu masalalarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirishimiz mumkin.

Har qanday davlat taraqqiyoti ta'lim-tarbiya sohasida erishilgan yutuqlar, uning jahon andozalariga mosligi va amaliy hayotda qanday o'rin tutishlariga bog'liq. Sifat o'zgarishlari esa mazkur sohada ijobiy yangiliklar kiritilishi bilan belgilanadi. O'z navbatida bunday yangilikni kiritish – imitatsion jarayon bo'lib, bu – ta'limda samaradorlikka erishishdan iborat bo'ladi. Bu borada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining nutqini o'stirishda bolalar adabiyoti vakillari, janrlari bilan tanishtirish va yangi pedagogik texnologiyalar asosida hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha olib boriladigan o'zgarishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Kelajakavlod tarbiyasida badiiy adabiyotni teran anglash, mustaqillik qobiliyatlarini shakllantirish va mustaqil ishlash, izlanishlarini odat tusiga kiritish, hayotda uchraydigan voqea-hodisalarning mohiyatini tez anglaydigan zukko va bilimdon qilib tarbiyalash aynan boshlang'ich ta'limdan boshlanishi kerak. Bunday maqsadlarni amalga oshirish DTS dasturlarida ko'zda tutilgan bo'lib, fanlarni o'qitishda ular orasidagi aloqadorlikning ta'minlanishi bilan amalga oshirilib boriladi. Barkamol avlodni tarbiyalashda esa badiiy adabiyot borasidagi nutqiy bilimdonlikning ahamiyati juda katta. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent-2008. 34-bet

o'qishga o'rgatish va o'qish darslarini olib borish jarayonida ularni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ustida ishlash davomida o'quvchilarning nutqini o'stirish, har tomonlama keng fikrlay olishga imkoniyat yaratish hamda dars mashg'ulotlari davomida interfaol usulda o'quvchilarni mustaqil ravishda turli mavzularda gap tuza olishga o'rgatish va gap ustida ishlash, o'zi tuzgan gaplari asosida hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha ayrim dars mashg'ulotlarini kiritish bugungi kun taraqqiyotining dolzarb muammolaridan biridir. O'quvchilar bilano'quvchilar badiiy adabiyoti ustida ishlash ishlari hozirgi vaqtda boshlang'ich ta'limdan boshlab nutq o'stirish, keyinchalik savod o'rgatishga tayyorlov davrida va boshlang'ich ta'limning keyingi yillarida o'qish darslari orqali amalga oshiriladi. Bu borada esa ko'pgina tadqiqotlarda, asosan, xalq og'zaki ijodiga tayanib o'quvchilarning nutqini o'stirish orqali hikoya qilish bilan tanishtirish kuzatiladi. Shu tomondan bolalarni boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish darslarini olib borish hamda bunda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilar badiiy adabiyoti ustida ishlashning yangi texnologiyalarini yaratish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Respublikamiz xalq ta'limi oldida turgan asosiy vazifa har tomonlama kamol topgan sog'lom, qobiliyatli, o'z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulug' maqsadni ro'yobga chiqarish xalq ta'limi tizimiga qarashli barcha xodimlar va keng o'qituvchilar ommasidan o'z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish xilma-xil metodik usullarni o'ylab topish hamda uni maktab hayotiga tadbiq etishni talab qiladi. Bugun maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilar ilmfan, texnika taraqqiyoti erishgan bir qator yutuqlardan bahramand bo'lgan ma'lum darajada bilimli kishilardir.

O'quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg'ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Ruhshunoslarning aniqlashicha bolalar o'qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma'lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o'zlari mulohaza

yuritib mustaqil bajargan ishlari vositasida o`zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o`quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko`rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko`plab o`quv materiallarini xayolidan o`tkazadi. O`xshash hodisalarni taqqoslaydi. O`zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O`qituvchilarning tayyor holda bergan ma`lumotida esa o`quvchi fikrlash faoliyati to`la ishga kirishmasdan to`g`ri javobni o`zlashtirib oladi. O`xshash hodisalarga duch kelishi bilan o`qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Davlat ta`lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o`quvchi egallashi lozim bo`lgan materiallar ancha murakkab bo`lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

Bugungi Davlat ta`lim standarti va ta`lim tizimi o`qituvchilar oldiga o`ta mas`uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o`tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg`ulotlarni ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir minutidan unumli foydalanishi zarur. Mashg`ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o`quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo`lgan bilimlar hajmini, o`zida hosil qiladigan ko`nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o`z navbatida o`quvchining mashg`ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o`quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo`lishi zarur.

Bola dunyoga kelishi bilan ota-ona va qarindosh-urug`lari kundan-kun o`sib borayotgan yosh inson faoliyatida odamlarga xos har xil harakatlarni ko`rgisi keladi va tez orada bu orzularining ro`yobga chiqayotganligining guvohi bo`ladi.

Bu o`rinda Samarqandlik pedagog A. Umarovanning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir. “Tasavvur qiling, o`quvchi ma`lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin maktab o`quvchisi bo`ladi. Uning vazifasi o`zgaradi. Bir kecha- kunduzda o`rtacha 4 soat ta`lim oladi. Kechagi o`yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir joyga joylab... o`qituvchi bilan muloqatda bo`ladi. O`quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ana shu vaqtda o`qituvchi loqayd, mas`uliyatsizlik qilsa, uning bu holati ota-onalarning holati bilan

hamohang bo'lib qolsa, ota-ona ham yordam berishdan ojiz, nazorat qilishga “vaqti yo‘q” bo‘lsa, o‘sha o‘quvchilar bo‘sh o‘zlashtiruvchi, tartibsiz yomon o‘quvchilarga aylanadilar. O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan fidokor o‘qituvchi ana shu paytda o‘quvchilarni qo‘lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi: o‘quv mashg‘ulotlariga qiziqish uyg‘otadi.

Dunyoning ilg‘or mamlakatlari tajribasida sinab ko‘rilgan va bugun o‘qish tizimimizdan mustahkam o‘rin olgan ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borayotgan bizning mamlakatimizda ta‘lim-tarbiyaga katta e‘tibor berilmoqda. Qisqa vaqt ichida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta‘lim to‘g‘risida qonun” ning qabul qilinishi va uning hayotga tadbiiq etilishi, yosh avlod tarbiyasining umummilliy ahamiyatga ega bo‘lgan ish darajasiga ko‘tarilishi mamlakatimizda xalq ta‘limiga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlik hisoblanadi

Ana shunday bir sharoitda barcha fanlar qatori ona tili va o‘qish o‘qitilishiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Chunki ona tili va o‘qish barcha o‘quv fanlarining asosidir. Ona tili va o‘qishni o‘rganish bolaga ta‘lim berish uni tarbiyalash va rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Mavzunung o‘rganganlik darajasi. Bugungi kunga qadar bolalar badiiy adabiyotni o‘rgatish va ularning nutqini o‘stirish ustida ishlash borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilgan. Chunki boshlang‘ich ta‘limda ta‘limda bola nutqi rivojlantirilsa, ular hikoya qilish bilan tanishtirilsa, bolalar adabiyoti vakillari hamda badiiy adabiyot ustida ishlash tizimi ma‘lum me‘yorga keltirilsa, bola hayotining keyingi bosqichlarida bog‘lanishli nutq bilan bog‘liq masalalar biroz bartaraf etilgan bo‘ladi. O‘quvchilarni hikoya qilishga o‘rgatish ustida ishlash ravon nutqning turi sifatida o‘quvchilarda monologik nutq tarzida 5-6 yoshdan boshlab, o‘rgatilib borilishi juda ko‘plab ilmiy adabiyotlarda ta‘kidlangan.

Bunda, boshlang‘ich ta‘lim sohasida o‘zining qarashlari bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan Q.Shodiyevaning o‘qishga o‘rgatishda gap ustida ishlash yuzasidan bildirgan fikrlarini, shu bilan birga F.R.Qodirova, M.R.Qodirova va boshqalarni nutq o‘stirishda badiiy adabiyot ustida ishlash va hikoya qilishga o‘rgatish haqidagi qarashlarini, S.Jumaboyevning bolalarni badiiy adabiyot bilan

tanishtirish sohasidagi izlanishlarini, boshlang'ich ta'lim sohasida Abdullayeva K., G'apparova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G., Matshonov S., Safarova R., Qosimova K., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh.² kabilarni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda o'quvchilarning maktabda bog'lanishli nutqini o'stirishning yangi jarayonlarini dars mashg'ulotlari asosida ishlab chiqishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi –Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining tarbiyasida muhim o'rin tutadigan, amalda hayotga tadbiq etish tadqiqotimizning maqsadi hisoblanib, boshlang'ich ta'limda bolalarni o'qishga o'rgatish dars mashg'ulotlarini o'tish bilan birga bog'lanishli nutqini o'stirish ustida ishlashning yangidan-yangi usullarini ishlab chiqish ham asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari-Boshlang'ich sinfda o'qitish o'quvchilar nutq madaniyatini o'stirishga keng imkoniyat yaratadi. Barcha sinf mashg'ulotlarda, shu jumladan ona tili darslarida ham, tilni amaliy jihatdan o'zlashtirib borish, to'g'ri talaffuz qitish usullarini o'rganib chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga o'tiladigan o'qish va ona tili darslarini o'tish mobaynida gap tuzishga kerakli so'z va uning shaklini tanlash, fikrni orfografik va punktuatsiya jihatdan savodli bayon etish, orfoepik jihatdan to'g'ri talaffuz qilish ustida muntazam va rejali ishlashni ilmiy asoslab berish, tadqiqot ishimizning ilmiy ahamiyatidir.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.Tadqiqot natijasida aniqlangan ilmiy-amaliy yondashuvlar, ishlab chiqilgan tavsiyalardan o'quvchilarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish o'rqali bog'lanishli nutqi ustida ishlash mashg'ulotlarini boyitish, boshlang'ich ta'limda olib boriladigan turli o'quv pretmetlarini takomillashtirish hamda o'quvchilarningbog'lanishli nutqini

² Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008.

takomillashtirishda, ularning bilimini o‘stirishda, malakasini oshirishda keng foydalanish.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, birinchi bobi uch bo‘limdan, ikkinchi bobi to‘rt bo‘limdan, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. O‘qish darslarining maqsad va vazifalari, ta’limiy - tarbiyaviy ahamiyati

1.1. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashini shakllantiruvchi omillar.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida

savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda «O'qish kitobi» darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlool va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi. Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi.

Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Bunday mavzudagi asarlar o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Umuman, «O'qish kitobi» darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi.

Amaldagi «O'qish kitobi» darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan. Masalan, 1-sinfda o'rgatiladigan «Ajdodlarimiz-faxrimiz», «Ilm-aql chirog'i», «Zumrad bahor», «Kumush qish» kabi mavzular 2-4-sinflarda ham davom ettirilgan. Bu esa o'quvchilarning oldingi bilimlari to'ldiradi va boyitadi.

Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir. Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

O'quvchilarga ta'lim tarbiya berish vazifalaridan biri ularda dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu vazifani xal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti. O'quvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir. Quyida ko'rsatilgan omillar tilni o'rgatish bilan bog'liq holda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish usulini belgilaydi.

1. Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati. Uning aloqa vazifasini ifodalashdan iboratdir. Maktabda, shu jumladan boshlang'ich sinflarda tilning o'rgatishning yetakchi yo'nalishi o'quvchilar tilning aloqa vazifasini bajarishni tushunishlariga erishish hisoblanadi.

2. Til bilan tafakkur o'zviy bog'liq bo'lib, tafakkur so'z vositasida yuzaga chiqadi. Til tafakkurning maxsuli hisoblanib ongdan tashqarida o'zicha yashamaydi.

3. Til va tafakkur atrofimizni o'rab olgan moddiy borliqqa nisbatan ikkilamchidir.

4. Til barcha tomonlari o‘zaro dialektik bog‘lanishda va birlikda bo‘lgan murakkab, ko‘p qirrali hodisa. Aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari bir biriga ta’sir etadi, shunday sharoitdagina til o‘zining aloqa funksiyasini bajarishda ko‘rinadi.

Uning jamiyat hayotidagi rolini aniq tushunishga yordam berish uchun:

1. O‘quv jarayonida har bir til birligining nutqimizdagi rolini o‘quvchilar o‘zlashtirishini ta’minlash zarur. O‘quvchilar tilning aloqa funksiyasini, tilning asosiy birliklar (fonema, morfema, so‘z, so‘z birikmasi) gaplarning vazifasini tushunish jarayonida o‘rganishdir.

2. O‘quvchilarning tilning kommunikativ funksiyasini tushunishlari “Til har bir kishi va umuman jamiyat hayotida qanday rolni bajaradi?” savolga jamoa bo‘lib javob topishda ijodiy ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlari oshgan sari odamning odam bo‘lishida tilning rolini tushuna boshlaydilar.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarashini shakllantirishda tilning kelib chiqishini tilda, ya’ni so‘zlarning paydo bo‘lishi haqida ularning saviyasiga mos bo‘lgan sirni yechish ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tilning rivojlanish haqidagi bilimni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ot, sifat, son, fe’l so‘z turkumlari so‘zning tarkibi bo‘lishi katta imkoniyatga ega. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning tilning o‘zlashtirish jarayonini tekshirish shuni ko‘rsatganki tilga ilmiy qarash asoslarini shakllantirish uning muhim bog‘lanishlarini bilishga yordam beradi. Xususan, o‘quvchilarning so‘zning tovush tomoni bilan leksik ma’nosi, so‘zning grammatik ma’nosi bilan uning ma’lum so‘z turkumiga tegishliligi o‘rtasida bog‘lanish kabilarni bilib olishi shu maqsadga xizmat qiladi. Bu bog‘lanish tilning fonetik, leksik, so‘z yasalishi va grammatik tomonlarining bir-biriga ta’sir qilishini xarakterlaydigan umumiy bog‘lanishlarini xususiy ko‘rinishi hisoblanadi. Bu esa o‘quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Tildan bilim berishda o‘quvchilarning hayotiy tajribalari ga tayanish muhimdir. O‘qituvchi nazariy xarakterdagi

umumlashtirish zarur bo'lgan faktik materiallarni yig'ish bosqichida ham berilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun ham bolalarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid amaliyotiga tayanadi. Tilga oid bilimni o'rganish natijasida o'quvchilarning nutq faoliyatining sifati o'zgaradi, ongliligi ortadi.

Ona tilini o'rganish jarayonida ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda o'zbek tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning haqiqiy tomoni uning g'oyaviy yo'nalishida va badiiy ifodaliligi o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etadi. Atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytiradi, tilga va uni yaratgan halqqa qiziqishini tarbiyalaydi, ularning shaxsiy sifatlarini belgilaydi. Demak, tilni o'rganish jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilarni ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga quyidagi omillar o'qituvchilarning metodologik pozitsiyasi, o'quvchilar o'zlashtiradigan til haqidagi bilimlar tizimi, o'quvchilar o'rgana oladigan usuli, tilni o'rganishga asos bo'ladigan materialning bilim berishdagi g'oyaviy – siyosiy va badiiy qimmatini hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

So'zning tovush qurilishi mazmunsiz o'zicha yashay olmaydi. Istalgan tovushlar yig'indisi emas, balki ma'lum ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisiga aloqa maqsadiga xizmat qiladi. So'zning o'zigina fikrni ifodalay olmaydi. Aloqa maqsadida xizmat qilish uchun so'zlar bir-biri bilan grammatik jihatdan o'zaro bog'lanishi zarur. Shundagina gap tuziladi, gap orqali fikr ifodalanadi. Demak, tilshunoslik fani bo'limlari o'rtasidagi munosabatlar mavjuddir. Fonetika leksikologiya bilan ham grammatika bilan ham bog'lanadi.

Tovushlar, fonemalar, bo'g'inlar tilda alohida emas, balki ma'lum leksik ma'no bildiradigan so'z tarkibida yashaydi. Xuddi shuningdek fonetika sintaksis bilan ham bog'lanadi, xususan har bir gapda ma'lum ohang bo'lishida ko'rinadi. Leksikologiya so'z yasalihi bilan bog'lanadi:

1. Tilning lug'at tarkibi yangi so'zlar yasalihi hisobiga boyib boradi.

2. Yasalgan soʻzlar yasama negizning moddiy maʼnosiga asoslanadi.

Masalan, paxta kor

paxta zor

Morfologiya leksikologiya va soʻz yasalishi bilan bogʻlangan. Morfologiya soʻzining grammatik xususiyatini oʻrganadi. Soʻzning grammatik maʼnosi doimo leksik maʼnosi bilan birga namoyon boʻladi. Xuddi shuningdek morfologiya va sintaksis ham oʻzaro bogʻlanadi. Bu munosabat biz ilm choʻqqilarini qunt bilan egallamoqdamiz gapi asosida koʻrsatib beriladi. Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadi.

1. Tilning barcha tomonlari oʻzaro bogʻliqligini va ularning har biri oʻziga xos xususiyatlariga ega ekanliklarini hisobga olib, oʻquvchilar tilini ongli oʻzlashtirishlari uchun tilning har bir tomoni xususiyatlari va ular oʻrtasidagi bogʻlanishni oʻzlashtirishlari zarur.

2. Tilning barcha tomonlarining bir-biriga taʼsiri uning aloqa vositasi ekanligida namoyon boʻladi: soʻzlar toʻgʻri talaffuz qilinishi yoki yozilishi, barcha tushunarli boʻlishi, gap grammatik jihatdan toʻgʻri tuzilishi kerak. Boshlangʻich sinf ona tili dasturlarida ham yuqoridagi xulosalarga amal qilingan. Dasturning “Tovushlar va harflar” boʻlimi taxlil qilib koʻrsatiladi.

Hozirgi kunda maktabning asosiy vazifasi har tomonlama yetuk insonlarni tarbiyalashdir. Bu vazifani bajarish ona tili predmeti oʻziga xos oʻrin tutadi. Oʻzbek tilini oʻrganish natijasida oʻquvchilarda oʻz fikrini grammatik, toʻgʻri, uslubiy aniq, mazmuniy intonatsiyaga rioya qilingan holda ifodalay olish va uni imloviy toʻgʻri yoza olish koʻnikmalarini shakllantiradi:

Oʻzbek tilida berilgan bilimlar mazmuni boshlangʻich sinflar dasturida aks ettirilgan (talabalar dastur mazmunini eslaydilar). Tilni oʻrganish jarayonida boshqa koʻpgina oʻquv predmetlari uchun boʻlgan koʻnikmalarni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Chunonchi, tahlil, tarkib, umumlashtirish, taqqoslash va boshqalar. Oʻzbek tili kursidan hosil qilinadigan maxsus koʻnikmalar bilan

predmetlararo ko‘nikmalar ham bir-biridan ajralmagan holda, o‘quv tarbiyaviy jarayonida shakllantiriladi.

Yuqorida boshlang‘ich sinflarda til fanining barcha bo‘limlari o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilishi haqida fikr bildirdik. 1-4-sinflarda fonetika, leksika, grammatika va so‘z yasalishi haqida elementlar bilim beriladi. Kursning bunday ko‘rilishi tilning barcha tomonlarini bir biriga o‘zaro ta’sir etadigan bir butun hodisasifatida o‘rganilishini taqazo etadi. Tilni o‘rganishga bunday yondashish ta’lim jarayonini o‘quvchilar nutqini o‘stirish vazifasini hal etilishiga yo‘naltirish imkonini beradi.

1.2.O‘qish darslarida qo‘llaniladigan metod va usullar

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o‘rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta’kidlangan. Ilg‘or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi. Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o‘qishga o‘rgatish yo‘l-yo‘riqlarini o‘qish metodikasi ishlab chiqadi. O‘qish metodikasi kichik yoshdagi o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi. O‘qish darslarining samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim metodlarining to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq.

«Metod» atamasi yunon tilidan olingan bo‘lib, muayyan maqsadga erishish, borliqni amaliy va nazariy o‘zlashtirish usullari majmuidir. Binobarin, fanningo‘zi kabi o‘qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo‘ladi. Masalan, eski maktablarda o‘qish quruq yod olish metodi asosida o‘rgatilgan bo‘lsa, hozir izohli o‘qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so‘zlarga izoh berishga, ma’nosini tushuntirishga, o‘qilganni qayta hikoyalashga umuman olganda, o‘qishning ongli bo‘lishiga mutlaqo e’tibor berilmagan¹. Ularda ko‘proq to‘g‘ri talaffuz, qiroat bilan o‘qish, ifodali o‘qish nazarda tutilgan. Badiiy asarni izohli

o'qishga yaqin bo'lgan metodlardan biri ijodiy o'qishdir. Atoqli metodist olim N. I. Kudryashov ijodiy o'qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi.

Ifodali o'qish. Boshlang'ich ta'lim tizimida *mantiqiy o'qish* (*matnni to'g'ri, tushunib, tez (me'yorida) o'qish*) va adabiy o'qish mukammal o'zlashtirilganidan so'ng ifodali o'qishga o'tiladi. Nasriy asarlarni ifodali o'qishdan oldin unda qanday g'oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, 4-sinfda *X. To'xtaboevning «Xatosini tushungan bola»* hikoyasini ifodali o'qishdan oldin o'quvchilarga xatosini tushungan bola kim ekanligi, uning xatosi nimalardan iborat bo'lganligi, maqtanchoqlikning illat ekanligi to'g'risida tushuncha beriladi. Sinfda o'qishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan biri tanlab o'qishdir.

Masalan, 3-sinfda X. To'xtaboevning «Hassa» hikoyasi bilan tanishish jarayonida Qobil boboning savollariga Shavkatning javoblari yoki S. Anorboevning «Bahs» hikoyasidagi bolalarning bahslashish epizodi yuzasidan o'qituvchi topshirig'iga ko'ra mazkur o'rinlarni tanlab qayta o'qilishi natijasida ushbu asarlarning badiiy-estetik qimmatini chuqurroq o'zlashtirishga erishiladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo'llash o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak. Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutq

bog'lanishli nutq deyiladi.

¹ Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008.

Bog'lanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobotkabilarni, maktab sharoitida esa o'qituvchi bergan savolga o'quvchilarning keng, mukammal og'zaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mumkin.

Boshlang'ich sinflar metodikasida bog'lanishli nutqqa oid mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) berilgan savolga keng, mukammal javob;
- 2) o'qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o'rganish; o'quvchilar lug'atini faollashtirish bilan bog'liq holda har xil matnli mashqlar;
- 3) muntazam o'tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish;
- 4) o'qilgan matnni turli variantda og'zaki qayta hikoyalash;
- 5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o'quvchilarning og'zaki hikoyasi;

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi.

Bog'lanishli nutqdan mashqlarning turli xil bo'lishida, avvalo, material manbaiga, tematikaga, shuningdek, janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilinadi.

O'quvchilar nutqini o'stirish ularga aniq ko'nikmalarni singdirish demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil mashq sifatida bog'lanishli nutqni o'stirishdan quyidagi ko'nikmalarni bilib oladilar:

1. Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to'liq yoritish ko'nikmasi. Masalan, «Biz uy ishlarida ota-onamizga qanday yordamlashamiz?» mavzusi berilsa, o'quvchilar aniq bajargan ishlari haqida hikoya qiladilar. Ular mavzuni yaxshi tushunishlari uchun bayon matni qayta hikoya qildiriladi, inshoda esa berilgan mavzu yuzasidan mustaqil hikoyalash mashq qilinadi.

2. Inshoni asosiy fikrga bo'ysundirish ko'nikmasi. Bolalar ishi ma'lum fikrni (tabiatning ajoyib tasvirini idrok etish, o'zlarining baxtli hayotidan g'ururlanish, mehnatga va mehnatkash insonlarga muhabbatni) ifodalaydi.

3. Hikoya, insho uchun mavzuga taalluqli, uni yoritishga zarur bo'lgan materialni yig'ish. Bu bayonga ham taalluqli bo'lib, namunaviy matn tahlil qilinadi, mazmunini to'g'ri tushunish ustida ishlanadi, asosiy mazmun ajratiladi.

O'qituvchidan o'quvchini navbatdagi inshoga tayyorlashda shu mashqning pedagogik maqsadini, o'quvchilarni nimaga o'rgatishni, tafakkuri va nutqini qanday boyitishni, shuningdek, mashqlar izchilligida shu inshoning tutgan o'rnini

aniq ko'z oldiga keltirish talab etiladi. Shuning uchun o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi. Rejada o'quvchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi zarur.

Metodik an'anaga ko'ra matnli mashqlar **tasvirlash, hikoya qilish** va **muhokama**ga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda bular, asosan, **tasvir** yoki **muhokama** elementlari bo'lgan hikoya tarzida uchraydi.

Har uchala janr uchun foydalaniladigan material xarakterida ham, qurilishida ham, til vositalarini tanlashda ham o'z xususiyatlari mavjud. Insho yoki bayonga tayyorlanayotganda o'qituvchi (yoki o'quvchi) matnning janr xususiyatlarini hisobga oladi.

Hikoya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi, chunki u jo'shqin, jonli, ta'sirchan bo'ladi. «O'qish kitobi»da bunday hikoyalar ko'plab berilgan.

Tasvirda syujet, qatnashuvchi shaxslar bo'lmaydi; unda tabiat, ayrim predmet va hodisalar tasvirlanadi. O'quvchilar «O'qish kitobi»da berilgan ko'pgina tasviriy matnlarni o'qiydilar, ularni qayta hikoya qiladilar, bayon, ayrim narsa yoki hodisalarni tasvirlab insho ham yozadilar. Masalan, «Bizning sinfimiz», «Bahor keldi» kabi. Tasvirga xos xususiyatlar shundan iboratki, unda sifatlash, taqqoslash, metaforalar ko'p bo'ladi. Tasvir o'quvchilar uchun hikoyaga nisbatan qiyin janr hisoblanadi, shuning uchun boshlang'ich sinflarda ko'proq tasvir elementlari bo'lgan hikoya tarzidagi bayon va insho yozdiriladi.

Muhokama bog'lanishli matnning anchagina qiyin shakli hisoblanadi, shuning uchun boshlang'ich sinflar dasturida muhokama tarzida insho yozdirish tavsiya etilmaydi; o'quvchilar inshoda muhokama elementlaridagina foydalanadilar. Masalan, «Qushlar uyasini nima uchun buzish mumkin emas», «Paxta – bizning milliy boyligimiz» mavzularida og'zaki hikoya tuzdirilsa yoki insho yozdirilsa, muhokama elementi, albatta, bo'ladi.

O'qituvchi bog'lanishli nutqni rejalashtirganda, turli janrda mashq qilishni ko'zda tutadi va o'quvchilarga hikoya, tasvir va muhokama elementlarini o'rgata

boradi. Bunda ko'proq hikoya tarzidagi matn tuzdirishga ahamiyat beradi. Bolalarning bog'lanishli nutqni egallash darajasiga qarab, matnga tasvir va muhokama elementlari kiritib boriladi.

Namunaviy matn og'zaki va yozma qayta hikoya qilinadi. O'qish darslarida asosan og'zaki qayta hikoyalash mashq qilinsa, ona tili darslarida u ko'proq yozma tarzda o'tkaziladi.

Bayon o'qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozma qayta hikoyalashdir. O'qish darslarida matn ustida ishlash, o'qilgan matn yuzasidan savollarga javob berish, reja tuzish va reja asosida og'zaki qayta hikoyalash bolalarni bayon yozishga tayyorlaydi.

Qayta hikoyalashning turlari xilma-xildir. Har qanday qayta hikoya qilingan matn yuzasidan bayon yozish mumkin, ammo bayon yozish og'zaki qayta hikoyalashga nisbatan qiyin va murakkab faoliyatdir. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozish sur'ati sekin, shunga ko'ra bayon uchun kichik hajmdagi, kompozitsiyasi sodda, til tomondan ham mos matn tanlanadi. Bayon matni asta-sekin murakkablashtira boriladi: avval hikoya tarzidagi bir lavhani ifodalovchi matn tanlansa, unga yana lavhalar, tasvir elementlari kiritila boriladi, qatnashuvchilar soni orttiriladi, muhokama elementlari ham qo'shiladi; keyinroq shaxsini o'zgartirib bayon yozishga o'tiladi. SHunday qilib, bayon asta-sekin ijodiy tus ola boradi.

Boshlang'ich sinflar ona tili dasturiga ko'ra, 2-sinfda katta bo'lmagan (30-40 so'zli) matn yuzasidan o'qituvchi yordamida so'roqlar asosida bayon yozish, 3-sinfda 40 - 60 so'zdan iborat matnning mazmunini jamoa bo'lib tuzilgan 3-5 ta reja asosida bayon yozish, 4 - sinfda esa mustaqil tuzilgan reja asosida (70-90 so'zli) bayon yozish ko'zda tutiladi.

Mashq sifatida bayonning ahamiyati katta: bayon bolalarda adabiy nutqni to'g'ri shakllantirishga yordam beradi, nutq madaniyatini yaxshilaydi, badiiy uslubni singdiradi, tilga sezgirlikni oshiradi.

Bayon uchun kishilarning fidokorona mehnati, hayotini, ona tabiat tasvirini, fan, texnika, madaniyat borasidagi yutuqlarni aks ettiradigan yuksak g'oyali matn

tanlanishi, bayon mavzusi o'quvchilarning bilish tajribasini kengaytirishi, ularning dunyoqarashini shakllantirishi zarur.

Qayta hikoyalash va bayonda bolaning tabiiy nutqi eshitilishi, ya'ni berilgan namunani tushunmasdan yodlamasligi, namuna leksikasidan, nutq oborotlaridan, sintaktik qurilishidan foydalana olishi zarur.

Til vositalari matnni o'qish, suhbat, matn tahlili davomida o'zlashtiriladi; matndagi so'zlar va nutq oborotlari bolalarning «o'ziniki» bo'lib qoladi. Qayta hikoyalashda namunadagi u yoki bu gapni bola esga tushirishga harakat qiladi, o'zlashtirgan mazmunni to'liqroq, aniqroq berish uchun gaplar tuzadi. Bu bilan o'quvchining mustaqillik darajasi va bilish faolligi o'sadi, ijodiy elementlar qo'shila boradi.

Qayta hikoyalashda namunadagi izchillik, bog'liqlik saqlanishi, asosiy faktlar berilishi, ayniqsa, ilmiy matnni qayta hikoyalashda barcha muhim o'rinlar to'liq bayon qilinishi zarur.

Vahti-vahti bilan ilgari eshitilgan, o'qituvchi o'qib bergan yoki radio, televizordan yozib olingan matnni qayta hikoyalatish, o'quvchi bir marta ovoz bilan yoki ichda o'qigandan so'ng qayta hikoyalatishdan foydalanishni tajribada qo'llab turish ham mumkin. Bu ishni turli xil uslublarda olib borish imkoniyatini yaratadi va uni jonlantiradi.

Ko'pincha qayta hikoyalashga maxsus tayyorgarlik ko'riladi, bunda quyidagilarga rioya qilinadi:

1. Qayta hikoyalash va uning turi haqida o'quvchilar ogohlantiriladi: to'liq, detallari bilan, tilning tasviriy vositalaridan foydalanib matnga yaqin qayta hikoyalash; tanlab (masalan, bir qatnashuvchi shaxsga tegishli o'rinlarinigina) qayta hikoyalash, qisqartib qayta hikoyalash.

2. Suhbat, matn mazmunini tahlil qilish, matn tili ustidagi xilma-xil ishlar, qayta hikoyalashda zarur bo'lgan so'z, nutq oborotlari va gaplarni ajratish va aniqlash.

3. Qayta hikoyalashda ifodalilikni berish uchun ifodali o'qishni puxtalash.

To'liq yoki matnga yaqinlashtirib

qayta hikoyalash va bayon

Qayta hikoya qilish va bayonning bu turi boshqa turlariga nisbatan boshlang'ich sinflarda ko'p o'tkaziladi, chunki bu o'qilgan matnni butun detallari va bog'lanishlari bilan bolalar yodida mustahkamlash, namunaviy matnning mazmuni va tilini o'zlashtirish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Bolalar tez yodlab oladigan kichik matnni, she'riy misralarni buzmaslik uchun she'rni, ayniqsa, butun bir poetik obrazni tasvirolovchi lirik she'rni hikoya qilish tavsiya etilmaydi.

To'liq hikoya qilish uchun dastlab aniq syujetli, hikoya uslubida yozilgan matn tanlanadi, keyin bolalar hikoyaga tasviriy (tabiat tasviri, kishilar va boshqa predmetlarning tashqi ko'rinishi tasviri) va muhokama elementlarini kiritishni o'rganadilar.

Hikoya qilishga o'rgatish vaqtida o'quvchilarni «Bu fikr yozuvchi matnida qanday ifodalangan?» savoliga javob berishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Bola hikoya qilishga qiziqsa, agar hikoyani o'qituvchigina emas, sinfdagi barcha bolalar eshitsa, bunday hikoyalash jonli va qiziqarli bo'ladi. Hikoya qilishga o'quvchilarning qo'shimchasi, ma'lum qismini qayta hikoya qildirish, hikoyachini rag'batlantirish sinfda ijodiy muhitni vujudga keltiradi.

Matnga yaqin hikoya qilishda savollar matn mazmunigagina qaratilmasligi, o'quvchilar mustaqillik darajasini pasaytiradigan matn mazmuni yuzasidan beriladigan savollarni asta-sekin kamaytira borish, bolalarni kengroq, umumiyroq savollarga javob berishga o'rgata borish zarur.

To'liq hikoya qilishda hikoyani qanday boshlashni bilmaslik, ya'ni boshlanishi berilgan matn mazmunini davom ettira olmaslik, to'liq bayon qila olmaslik yoki noto'g'ri bayon qilish, bayon tilining kambag'alligi kabi kamchiliklar uchraydi. Hikoya qilishdagi ikkinchi kamchilikni yo'qotish, uning oldini olish uchun matn butunicha puxta tahlil qilinadi, ko'pincha asosiy mazmunni ifodalaydigan qismi alohida tahlil qilinadi. Bunday kamchilikni yo'qotishga matnni qismlarga bo'lish, har bir qismga sarlavha topib, matn rejasini

tuzish va reja asosida hikoya qilish ham yordam beradi. Bunda tanlab hikoya qilish (hikoya qilishning o'zaro uzviy bog'langan boshqa turlari ham) yordamchi vazifani bajaradi. Tilda kambag'allikka yo'l qo'ymaslik uchun lug'at, tasviriy vositalar va gap ustida izchil ishlab borish talab etiladi. To'liq yoki matnga yaqin bayon yozish savod o'rgatish davridanoq boshlanadi va barcha sinflarda o'tkaziladi.

Bolalarni o'z fikrini mustaqil yozishga (o'qilgan matnni hikoya qilishga) o'rgatishni, iloji boricha, erta boshlash ma'qul. Buning uchun o'quvchilar og'zaki hikoya qilayotganda qo'llagan alohida so'zni yozishdan gapni yozishga, so'ng matn qismlarini yozishga va 2-sinfdan boshlab maxsus tanlangan kichik matn asosida bayon yozishga o'rgatiladi.

Ish quyidagicha uyushtiriladi: bayon uchun tanlangan matnni o'quvchilar bir-ikki marta o'qiydilar (o'qituvchi o'qib berishi ham mumkin); bolalarning matn mazmunini to'g'ri tushunganliklarini aniqlash, o'qilgan matnni, uning g'oyaviy mazmunini, qismlari orasidagi bog'lanishni to'liq bilib olishga qaratilgan suhbat o'tkaziladi; matn rejasi tuziladi (reja suhbat vaqtida tuzilishi ham mumkin); lug'at ishi o'tkaziladi (so'zning ma'nosi va yozilishi tahlil qilinadi), muhimroq sintaktik tuzilmalarga va tilning tasviriy vositalariga diqqat jalb qilinadi. Ayrim gaplar, hatto matn qismlari tuzdiriladi; o'quvchilar bayon matnini mustaqil yozadilar, o'qituvchi esa ular ishini kuzatadi, sinfdagi boshqa o'quvchilarga xalaqit bermay ayrim bolalarga individual yordam beradi; bolalar yozgan bayonlarini o'zlari tekshiradilar, takomillashtiradilar va daftarni tekshirish uchun o'qituvchiga topshiradilar.

O'quvchilar yozgan bayon muhokama qilinayotganda, ular yozgan matnni bayon matniga qiyoslash maqsadga muvofiq bo'lib, bu ish mazmunda va bolalar bayoni tilida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

Tanlab hikoya qilish va bayon. *Tanlab hikoya qilish matndan tor mavzuga, kichik so'roqqa oid qismini tanlab qayta hikoyalashdir. Masalan, o'qilgan matndan faqat personajning tashqi ko'rinishi tasvirlangan qismnigina qayta hikoya qilish, faqat ikki personajning uchrashish manzarasini qayta hikoyalash, faqat tabiat*

tasvirini hikoya qilish va boshq.*Tanlab qayta hikoyalashning quyidagicha turlari mavjud:*

1. O'qilgan matn qismini yoki bir voqeani unga chizilgan rasm asosida hikoya qilish.

2. O'qituvchi topshirig'i yoki berilgan savol asosida alohida lavhani hikoya qilish.

Tanlab hikoya qilish uchun o'quvchi matnni boshidan oxirigacha qayta o'qib chiqishga yoki yodga tushirishga, kerakli materialni yig'ishga to'g'ri keladi. Buning uchun o'quvchilarga matnni ichda o'qish topshiriladi yoki ovoz bilan tanlab o'qish topshirig'i beriladi. Bunday tanlab hikoya qilish ba'zan yozma bayon sifatida ham o'tkaziladi.

1.3.Bog'lanishli nutq va uni o'stirish vazifalari.

Insho turlari.Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo'lib, maktabda alohida o'rin tutadi; barcha nutqqa oid mashqlar ma'lum mazmunda inshoga bo'ysunadi.Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot va ehtirosli hikoyadan boshlanib, o'z fikrini ifodalashga, o'quvchi shaxsining tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi.Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, kuzatuvchanlikka, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug'diradi.

“Insho” asli arabcha so'z bo'lib, ma'nosi *“yaratish”*, *“bino qilish”*, *“boshlash”* demakdir. Bu co'zning ma'nosi hozirda ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma'nosida qo'llanadi.

Insho – ijodiy ish bo'lib, u o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, mantiqiy bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmasini tanlash, gap

tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi. Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo'shiladi. O'quvchi inshoni mustaqil, ijodiy xarakterda bo'lgani uchun, «o'ziniki»ni yozgani uchun ham sevadi. Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi – inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar yangi, o'quvchilar nutqini o'stirish, aqliy, ijodiy o'sishiga mo'ljallangan dasturga o'tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada o'sdi. Og'zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o'z inshosini aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, «texnik» vazifalar ham amalga oshiriladi, ya'ni matnni yozishda imlo qoidalari va husnixatga e'tibor berish, matnni xatboshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi.

Og'zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi. Insho material manbaiga ko'ra quyidagi uchga bo'linadi:

1) o'quvchining o'zi ko'rgan-bilganlari, eshitganlari haqidagi, ya'ni mehnat, kuzatishlar, ekskursiyalar, o'yinlar, o'z tajribasi va boshqa jonli materiallar asosidagi insho;

2) kitob materiali, rasmlar, film, spektakl, o'qituvchi hikoyasi va boshqa manbalar asosidagi insho;

Mustaqillik darajasiga, tayyorgarlik ko'rish metodiga ko'ra insho ikki turli bo'ladi:

1) sinf o'quvchilari uchun umumiy bir mavzu asosida jamoaviy tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan insho;

2) alohida mavzu asosida individual tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan individual insho.

Janriga ko'ra hikoya, tasvir, muhokama tarzidagi insholarga bo'linadi.

Boshlang'ich sinflarda tasvir va muhokama elementlari mavjud bo'lgan hikoya tarzidagi inshodan ko'proq foydalaniladi.

Inshoni tasnif qilish ta'limiy vazifalarni chuqur anglash va metodik vositalarni tanlashga, shuningdek, ish turlarini zaruriy yo'nalishda, baravar taqsimlashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir.

Rasm asosidagi insho maktablarda tez-tez o'tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasm bolalar sezgisiga ta'sir etadi, hayotning bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o'quvchilarga tanish bo'lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Rasm asosidagi inshoning uch asosiy turi bor:

1) rasmlar seriyasi yoki rasmlari asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;

2) syujetli, o'quvchilarni o'ylashga, faraz qilishga undaydigan bir rasm asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;

O'quvchilar avval rasmlar seriyasi asosida, so'ng bir rasm asosida, undan so'ng tasviri insho yozish (rasmni tasvirlash)ga o'rgatiladi.

Dasturga ko'ra, 1-sinf o'quvchilari o'yinlari, mehnatlari, voqea-hodisalar haqidagi taassurotlari asosida o'qituvchi rahbarligida hikoya tuzishlari va uni ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozishlari, 2 - sinfda rasmlar seriyasi asosida kichik hikoya tuzish va uni jamoa tarzida tuzilgan reja asosida yozish, tabiatni kuzatish va mehnat jarayoni haqida, bolalarning o'yinlari, ishlari, sayillari haqida, avval o'qituvchi rahbarligida, keyin mustaqil ravishda kichik hikoya tuzish va uni yozish, shaxsiy ishlari haqida xat yoza olishlari, 3 - sinfda rasmlar (bir mavzuga oid bir necha rasm, syujetli bir rasm, rasmni tasvirlash) asosida hayotiy tajribalari,

kuzatishlari, ekskursiyalardan olgan taassurotlari asosida rejani, avval jamoaviy ravishda, keyin mustaqil tuzib hikoya qilish va uni yozishlari talab etiladi.

Boshlang'ich sinflarda insho ta'limiy xarakterda bo'ladi, 3-sinfdagina tekshiruv insho o'tkazish mumkin. Rag'batlantirish maqsadida ta'limiy insholar ham baholanadi, lekin salbiy baho qo'yish tavsiya etilmaydi.

O'quvchilar tarbiyasida inshoning ahamiyati. Inshoning tarbiyaviy ahamiyati tanlanadigan mavzuga, shuningdek, insho ustida o'quvchilar qanchalik mustaqil ishlashi va qiziqishiga, insho g'oyasiga ham bog'liq.

Insho bolalarning voqea-hodisalarni chuqur his etishiga yordam beradi, izchil fikrlashga o'rgatadi, tilga va adabiy ijodga qiziqishlarini o'stiradi. Bolalar eng qiziqarli va o'zlariga yaqin voqea-hodisalar haqida hikoya qiladilar va yozadilar, ularning inshosi mustaqil ishlash malakasini o'stiradi, ommaviy faollikni oshiradi.

Tanlangan mavzuning g'oyaviy yo'nalishini ochish tarbiyaviy vazifani hal qilishga imkon beradi. Bu jihatdan mehnat, mehnat qahramonlari haqidagi, bolalarning hayoti, maktab, tug'ilib o'sgan qishlog'i yoki shahri haqidagi, urush qahramonlari haqidagi mavzular ayniqsa qulay. Bu mavzulardagi insholar mehnat kishilariga, qahramonlarga chuqur hurmatni tarbiyalaydi.

Insho jamiyat hayotini tushunishga o'rgatadi. Tabiatga, kishilarga, ularning yaxshilikka intilishlari va harakatlariga, mehnatga va mehnat mahsuliga muhabbatni tarbiyalaydi, kishilar xatti-harakatidagi chiroyli jihatlarni egallashga, hozirgi zamon axloqiy talablarini anglashda o'quvchilarga yordam beradi.

Inshoning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

1. Osondan qiyinga tamoyiliga rioya qilgan holda og'zaki va yozma inshoni muntazam o'tkazib borish bilan o'quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash. Mustaqil insho o'quvchilar faolligini o'stiradi.

2. *Inshoni hayot bilan bog'lash.* Bunda kuzatishlar asosidagi insho, kundalik yuritish, qilingan ishlar yuzasidan «hisobot» tarzidagi insho, xat, maqola, o'qilgan kitob haqida taqriz kabilarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta.

“Vatan” so'zini aytish bilan kishining bolalikda o'sib-ulg'aygan joyi tasviri ko'z oldida paydo bo'ladi. Ishlab chiqarishga ekskursiya materiali asosida mehnat haqidagi insho yangi tarbiyaviy imkoniyatlarni ochib beradi: unda bolalar ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyat va qiyinchiliklar, ilg'or kishilar haqidagi, kasb va mutaxassislik haqidagi, texnika haqidagi ma'lumotlardan foydalanadilar. Ishlab chiqarishga ekskursiya va mehnatni tasvirlash bilan bog'liq holda kasb haqida suhbatlashishga to'g'ri keladi va bu inshoda o'z aksini topadi. Mehnat haqidagi insho gazetaga maqola shaklida yozilishi mumkin. Mehnat yoki ishlab chiqarish haqidagi insho mavzulariga «Bizning qishloq», «Karam uzish», «Bog'da», «Bizning jamoa xo'jaligimiz», «Pochtada», «Do'konda», «Paxtakorlarga yordamimiz», «Bizning hashar», «Maktab yer uchastkasida», «Daraxt o'tqazish» kabilar kiradi. **«Men nimalarni bilaman?»** mavzusidagi tanlovga bolalar juda qiziqadilar. Tanlov bolalarning mehnat ko'nikmalarini aniqlabgina qolmay, ularni uyda, polizda, bog'da ishlashga rag'batlantiradi. Maqsad kishilarga foyda keltiruvchi mehnatga hurmatni tarbiyalashdir. Qishloq maktab o'quvchilari otalariga sabzavotlar ekish, hosilni yig'ish, o'tin tayyorlash kabi ishlarda qanday yordamlashganliklari haqida yozadilar. Sinfda mehnat haqidagi insho muhokama qilinadi. Bolalar foydali, zaruriy ijtimoiy faoliyat sifatida mehnatning mohiyatini tushuntiradilar. Ular har qanday mehnat e'zozlanishini aytadilar. Kelajak haqida **«Kim bo'lishni xohlayman?»** mavzusida tayyorgarliksiz hikoya qilish tarzidagi insho ham katta tarbiyaviy kuchga ega.

Juda yaxshi yozilgan inshoni sinfda ifodali o'qib berish va tahlil qilish bolalarni tarbiyalaydi. Ba'zi maktablarda bolalar inshosi va hatto bolalar she'rlari to'plami tuziladi, yaxshi yozilgan hikoya uchun tanlov e'lon qilinadi.

Insho mavzusi va uni yoritish. Mavzu insho predmeti bo'lib, uning mazmunini tashkil etadi. Mavzuga qarab inshoda aks ettiriladigan materiallar,

dalillar, hodisalar tanlanadi. Inshoning to'g'ri va to'liq bo'lishi o'qituvchi mavzuni qanday shakllantirishi, o'quvchilar uni qanday tushunishlariga bog'liq. Insho ustida ishlashda mavzu tanlash, uni rejalashtirishda esa og'zaki va yozma insho mavzusini belgilab olish muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar mavzuni yoritishga 1-sinf dan boshlab o'rganadilar. Ular mavzuga oid gap tuzadilar. Masalan, bahor havosi haqida, ona qishlog'i (shahri) haqida, qo'rqqoq quyon, ayyor tulki haqida gap tuzadilar. Keyin savollar asosida bir mavzuga oid bir necha gap tuzib, uni yozadilar. Insho uchun iloji boricha tor – aniq chegaralash mumkin bo'lgan mavzuni tavsiya qilish foydali. «Kuz» mavzusi o'quvchilar uchun juda keng mavzu bo'lib, bunda o'quvchi umuman kuz haqida, kuzda qilinadigan ishlar haqida yozishi mumkin, u yozadi – gaplarining aniq chegarasini bilmaydi. O'quvchilarga kuzga oid «*Paxta terimiga yordam*», «*Kuzkunlarining birida*», «*Bog'da olma terdik*», «*Pomidor terishga yordamlashdik*», «*Kech kuzda bog' manzarasi*» kabi mavzularni tavsiya qilish mumkin. Og'zaki va yozma insho ustida ishlashda mavzu berib, uni yoritishni talab qilishdan tashqari, avval material to'plash va shu yig'ilgan materiallar asosida mavzuni shakllantirishni tavsiya qilish ham mumkin. Masalan, kech kuzda tabiatni kuzatish va material yig'ish tavsiya qilinadi, kuzatishlar «Kech kuzda» mavzusida insho yozish bilan yakunlanadi. Bunda o'quvchilar mavzuni to'liq yoritadilar.

Insho rejasini tuzish. Reja har qanday og'zaki yoki yozma hikoya qilishning zaruriy pog'onasi, uning «loyihasi»dir. Qishi o'z nutqi haqida o'ylab, asosiy gaplarini belgilab oladi. Insho uchun reja tuzish shuning uchun ham zarur. 1-sinfda reja rolini o'qituvchi savollari, ya'ni so'roq gaplar tarzidagi reja bajaradi; 2-sinfda reja o'qituvchi rahbarligida jamoaviy tarzda tuziladi; 3-4-sinflarda esa mustaqil tuziladi. Boshlang'ich sinflarda 3 - 5 talik oddiy reja tavsiya qilinadi. Bolalar avval o'qigan hikoyalarga reja tuzadilar va uni reja asosida qayta hikoya qiladilar, keyin bayon rejasini tuzadilar, so'ng bir mavzuga oid bir necha rasm (rasmlar seriyasi) asosidagi insho rejasini, ya'ni rasimli reja tuzadilar, inshoga sarlavha topadilar. Shundan so'ng tasvirlangan voqea-harakatlar aniq ajratilgan, reja tuzishga qulay bo'lgan rasm yoki kuzatishlar asosida yoziladigan insho rejasini tuzishga o'tiladi.

Reja tuzishga o'rgatishda oldin nima haqida to'xtalish, keyin uni qanday davom ettirish, undan so'ng nima haqda aytish, nihoyat, hikoyani qanday tugatish kerakligini o'quvchilarga tushuntirish foydali usul hisoblanadi. Reja avval so'roq gap tarzida, keyin darak gap, oxiri nominativ gap tarzida tuziladi. Reja ko'pincha insho yozishdan oldin unga tayyorlanish jarayonida (rasm asosida yoziladigan insho rejasi kabi) tuziladi. Ba'zan rejani ekskursiya, kuzatishdan oldin, unga tayyorgarlik jarayonida tuzish maqsadga muvofiq. Ekskursiya, kuzatish, ijtimoiy foydali mehnat rejasi shu ishlar bajarilishidan oldin yoki ular yuzasidan material to'plash, insho uchun material tanlash va uni tartibga solish jarayonida tuziladi. Bunday reja insho yozishdan oldin ko'rib chiqilib, unga ayrim aniqliklar kiritiladi.

Inshoni yozishga tayyorlash. Og'zaki yoki yozma inshoning turi va vazifasiga qarab unga tayyorgarlik ko'riladi. Inshoga tayyorgarlikni o'qituvchi boshqaradi, bunga o'quvchilarni ishtirok ettiradi, ularning o'ta faolligi va mustaqilligiga erishadi. Tayyorlik deganda, birinchidan, o'quvchilarda nimanidir tasvirlashga, hikoya qilishga talab uyg'otadigan vaziyat yaratish; ikkinchidan, insho uchun yetarli bo'lgan zarur material yig'ish; uchinchidan, mavzuga oid, uni yoritishga mos bo'lgan til vositalarini tanlash tushuniladi.

Inshoga tayyorlik inshoni yozishdan bir necha kun ilgari boshlanadi, darsdan tashqari vaqtlarda va boshqa darslar jarayonida ham olib boriladi. Og'zaki yoki yozma insho ustida ishlash quyidagi uch bosqichga bo'linadi:

1) material yig'ish, ya'ni kuzatish, ekskursiya, mehnat jarayoni, rasmni ko'rib chiqish, kinofil'm, spektaklni ko'rish, badiiy va boshqa adabiyotlarni o'qish;

2) mavzuga va uni yoritishga mos material tanlash, uni tartibga solish, joylashtirish, ya'ni suhbat, muhokama qilish, zarur materialni ajratish, reja tuzish, lug'at ustida ishlash, imlo va leksik tomondan tayyorlash va hokazo; Birinchi va ikkinchi bosqichdagi ishlar, odatda, darsdan tashqari vaqtda bajariladi. Masalan, ekskursiya asosidagi insho uchun material yig'ish uni yozishdan ancha ilgari

boshlanadi; tabiat hodisalarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko'proq davom etadi; rasmlar esa insho yozishdan oldin ko'riladi. Shunday qilib, insho yozish yoki og'zaki hikoya qilish darsi ilgari bajarilgan ishlarning yakunidir. Insho darsining umumlashtiruvchilik roli bog'lanishli nutq sohasidagi ko'nikmalarni egallash me'yoriga qarab ortib boradi.

Insho darsining qurilishi tayyorlov bosqichining xarakteriga bog'liq. Tayyorlov bosqichida qancha ko'p ishlansa, insho darsida matn ustida shuncha chuqur ishlash imkoniyati yaratiladi. Insho yozishdan oldin yoki og'zaki hikoyalashda yig'ilgan materiallarni o'quvchilar yodiga tushirish, ularda qiziqish uyg'otish, yozishga yoki hikoya qilishga xohish uyg'otish zarur.

Insho yozish darsida quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi:

1. Mavzuni, inshoning vazifasini e'lon qilish (yoki yodga tushirish), uni o'quvchilar bilan muhokama qilish.
2. Kuzatish davrida to'plangan materialni tartibga solish yoki material yig'ish (masalan, rasmga qarab insho yozish uchun rasmni ko'rish) maqsadida suhbat o'tkazish.

Keyingi ona tili darsining ikkinchi qismidan 15-25 minut vaqt ajratib, tekshirilgan insholar yuzasidan yakuniy mashg'ulot o'tkaziladi (insho tahlil qilinib, xatolar ustida ishlanadi).

O'qituvchi har bir insho turi uchun o'quv vazifasini belgilab oladi. Masalan, rasmlar seriyasi asosida birinchi marta yozdiriladigan insho uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

1. O'quvchilarni inshoning yangi turi bo'lgan rasmlar seriyasi asosidagi insho bilan tanishtirish.
2. Rasmlar asosida matn rejasini tuzish.

O'quvchilarning mustaqillik darajasi o'sib borgan sayin, inshoga talab ham orta boradi.

O'quvchilar inshosini tahlil qilish. Nutq o'rtirish metodikasida o'quvchilar inshosi uchun baho me'yori muhim masala hisoblanadi. Tabiiyki, bunda yuqorida bayon etilgan asosiy talablarga rioya qilinadi.

O'quvchilar inshosini baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

1. Insho mavzusining yoritilishi (Mazmun mavzuga mosmi, ya'ni yetarli yoritilganmi, haqiqatga mos keladimi?).
2. Reja, kompozitsiya, izchillik (reja to'g'ri tuzilganmi, materialni bayon qilish tartibi rejaga mos keladimi, mazmunda takror yo'qmi, zarur o'rinlar tushib qolmaganmi, izchillik buzilmaganmi, asosiy fikr aniqmi, xulosa chiqarilganmi?).
3. Janri, uslubi (hikoya tarzidagi matnda tasviriy va muhokama elementlari bormi, uslubda xatoga yo'l qo'yilmaganmi, insho mavzusi va vaziyatni yoritish vazifasini janr va uslub oqlay oladimi, badiiylik elementlari bormi?).
4. Insho hajmi (so'z, gap soni; lakonizm yoki ko'p so'zlilik). O'quvchilar inshosiga qo'yilgan bunday talablar uni baholashda real yondashishga imkon beradi.

II BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stiririshda badiiy adabiyotni o'qitishning o'rni.

2.1. O'quvchilarni badiiy nutqqa o'rgatish bo'yicha ish mazmuni

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda badiiy so'z katta o'rin tutadi. Bolalar xalq ertaklari, she'r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko'radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalliga, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Buyuk rus demokratik V.G. Belinskiy bolalar kitobi tarbiya uchun yoziladi, «Tarbiya – buyuk ish, u insonning

taqdirini hal qiladi» - degan edi.

Badiiy adabiyotning qimmatini bolaning har bir jihatdan o'sishiga ta'sir ko'rsatishidir. Badiiy adabiyot bolaga jonajon o'lka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqyealar, bolalarning o'yinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlarini himoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko'rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga majbur qiladi. Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biror narsaga yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, to'g'ri-noto'g'ri deb, o'zlariga xos bir yordam beradi. Bolalar kitobning qiziqarli mazmuni do'stlik, halollik, mehnatsevarlik, o'rtoqlik namunalarini ko'rsatadi. Bolalar badiiy adabiyot asarlari estetik jihatdan tarbiyalashga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asarlarning yorqin obrazlari, jonajon tabiatning shoirona manzaralari, she'rlarning musiqaviyligi, tilning o'tkirliigi, ifodaliligi bolalarga yoqadi. Bolalar badiiy so'z qudratini his etadilar, uncha katta bo'lmagan ertaklar, xalq ashula hamda she'rlarini tez va osongina eslab qoladilar.

Badiiy so'zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog'chadan maktabga ana shu muhabbat bilan o'tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevadigan bo'lib qoladi. Xalq, og'zaki ijodi – ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo'shiqlarning ko'plari uzoq o'tmishda va hozirgidan tubdan farq qiladigan voqyeligidan tubdan farq qiladigan turmush sharoitida yaratilgan xalq ijodi asarlaridan faqat tarbiya vazifalariga javob beradiganlari tanlab olinadi.

Aql-idroki yoki jasurligi bilan, sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarni yengadigan dovyurak, vijdonli qahramonlar ishtirok etadigan ertaklardan bolalar juda hayratlanadilar, bunday ertaklar bolalarni ijobiy qahramonlarga nihoyatda hayrixoh bo'lishga, yovuzlikka, nohaqlikka, qizg'anchilikka, makr-xiylaga nisbatan murosasiz bo'lishga majbur etadi.

O'zbek xalq ertaklaridan tashqari ko'pgina rus xalq va mamlakatimizdagi boshqa xalqlar ertaklari ham bolalarga o'qib beriladigan ertaklar jumlasiga kiradi. Rus mumtoz adabiyoti namoyondalaridan A.S.Pushkin, N.A. Nekrasov, L.N. Tolstoy, K.D. Ushinskiy va boshqalarning asarlari bolalarga o'qib berish dasturiga kiritilgan. O'zbek yozuvchilari, shoirlari bolalar uchun juda ko'p ajoyib asarlar yaratganlar. G'.G'ulom, N. Orifjonov, I. Muslim, P. Mo'min, Sh. Sa'dulla,

Q.Hikmat, Q.Muhammadiy va boshqalarning asarlari – bolalarga o'qib beriladigan asarlarning eng boy manbasi hisoblanadi. Boshlang'ich o'quvchilariga bag'ishlangan adabiyotlar ro'yxatidan rus yozuvchilari va shoirlari: V. Mayakovskiy, A. Kononov, S.Mixalkov, A. Gaydar, K. Chukovskiy va boshqalarning tarjima qilgan asarlari keng o'rin olgan. Bu ro'yxatga chet el yozuvchilari Sh. Perro, X.K.Andersen va boshqalarning ertaklari ham kiradi. Bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasiga har xil janrdagi asarlar: hikoya va povestlar, proza hamda she'r shaklidagi ertaklar, dostonlar, xazil she'rlari, topishmoqlar, masallar kiradi.

O'qituvchi bolalarda adabiy asarni idrok qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Bola asarni tinglayotib, uning mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki muallif tasvirlayotgan his-tuyg'ular va kayfiyalarni his etishi ham lozim.

O'quvchilarda birgalashib eshitish malakalarini, uyushqoqlik bilan savollarga javob berish va o'qib berilgan asar asosida savollar berish, illyustrasiyani diqqat bilan ko'zdan kechirish, kitobga yaxshi munosabatda bo'lish ko'nikmalarini tarbiyalash zarur. O'quvchilarda kitobga berilish, bilishga qiziqish, o'qigangan asar haqidagi taassurotlarni o'rtoqlashish istagi va ko'nikmasini tarbiyalashi lozim.

Bolalar kitobi bolaga tushunarli bo'lgan, uning aqli va qalbiga yetib borgan, ya'ni bola yozuvchining hikoya qilayotgan narsasini tushunadi hamda his eta olgan taqdirdagina u o'zining tarbiyaviy rolini bajaradi.

Har bir asarni tevarak-atrofdagi ma'lum hodisalar bilan bog'lash va o'sha vaqtdagina o'qib berish lozim, deb o'ylash noto'g'ri. Albatta, kitobdagi hodisalarga bog'liq mavzuni o'qib berish kerak. Lekin boshqa vaqtda ham bunday kitob o'qishni

o'tkazish lozim.

Sh. Sa'dullaning she'rini o'qigandan so'ng o'tkaziladigan suhbatda o'quvchilarga injiq qizning xulq-atvorini baholashga ko'maklashadigan savollar berish kerak.

O'qituvchi: Gulbodomni yaxshi qiz deb bo'ladimi?

O'quvchilarning javoblari.

O'qituvchi: Nima uchun?

O'quvchilarning javoblari.

O'qituvchi: Siz bunday qiz bilan do'st bo'lishni istarmidingiz? Nega?

O'quvchilarning javoblari.

O'qituvchi: Gulbodomni uchratsangiz unga nima degan bo'lar edingiz?

O'quvchilarning javoblari.

O'qituvchi: Gulbodomga qanday g'amxo'rlik qilishingiz va yordam berishingiz haqida nimalarni aytib berar edingiz?

O'quvchilarning javoblari.

Bilim beruvchi xarakterdagi kitoblar, masalan, mehnat haqidagi kitoblar muqaddima suhbat va o'qigandan keyinga suhbatni boshqacha mazmunda bo'lishini talab etadi. Mehnat haqidagi kitob bolalar uchun kishilarning kasblari, mashinalar va mehnat qurollari haqidagi bilimlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

Bilim beruvchi kitoblar har xil bilimlar manbai bo'libgina qolmay, balki kishilarning mehnatiga hurmat, tabiatga nisbatan muhabbat va hokazo fazilatlar tarbiyalash vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Shuning uchun kitob bilan ishlashni shunday yo'lga qo'yish g'oyat muhimki, u bolalarda yuksak axloqiy sifatlar tarbiyalash imkonini bersin (masalan, katta guruhda Q. Muhammadiyning «Etik» she'rini o'qishda).

Monolog nutq- dialog nutqqa nisbatan ancha murakkab bo'lib, bu bitta odam tomonidan amalga oshiriladigan nutqdir. Monolog nutq(hikoya qilishda)da bitta kishi gapiradi, qolganlari esa tinglaydilar. Monolog nutq ko'pchilikka qarata aytiladigan nutq bo'lgani uchun, u har doim mantiqiy jihatdan izchil, grammatik jihatdan shakllangan, hammaga tushunarli va ravon bo'lishi kerak.

Monolog nutq (hikoya qilish) yaxshi xotirani, nutqning shakl va mazmuniga diqqatni yo'naltirishni talab etadi. Shuning bilan bir vaqtda, monologik nutq tafakkurga tayanadi.

Monologik nutq lingvistik (tilshunoslik) tomondan ham murakkab hisoblanadi. Monolog nutq tinglovchilarga tushunarli bo'lishi ushuni yoyiq gaplardan, aniq lug'atdan foydalanish kerak. Hikoya qila olish qobiliyati kishilarning muloqotda bo'lish jarayonida katta rol o'ynaydi. Bola uchun esa bu qobiliyat bilish vositasi, o'z bilimlarini, tasavvurlarini tekshirish vositasi hisoblanadi. Bolalarda monologik nutqning shakllanishi ularda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, bola nutqi monologik nutqqa aylanishi uchun u tilning lug'atini va grammatik tomonini erkin egallagan bo'lishi kerak.

Ruhshunoslarning aytishicha, bolalarda monologik nutq besh yoshdan boshlab paydo bo'ladi.

3-4 sinflarda hikoya qilishga o'rgatish vazifalari va ularning mazmuni ancha murakkablashadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari birinchi yarim yillikda tanish hikoya va ertaklarni mustaqil holda qayta hikoya qilishga, asar qahramonlarining suhbatini ifodali so'zlab berishga o'rgatiladi³.

O'qish darslarida birinchi marta o'qib berilgan kichik ertak va hikoyalarning mazmunini qayta hikoya qilishga, o'rtoqlari hikoya qilayotganda e'tibor bilan

³ Qodirova F., Qodirova M. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent – 2006 yil.

tinglashga, turli buyumlar va yil fasllarini tavsiflovchi (avval o'qituvchining savollari, so'ngra namuna va reja asosida) hikoya tuzishga o'rgatiladi.

Keyinchaliko'quvchilarga tanish ertak va hikoyalarni tinglashni, ularda ishtirok etuvchi rersonajlarning gaplarini, o'ziga xos xususiyatlarini tushunishni, asar mazmunini hikoya qilayotgan o'rtoqlarining nutqini diqqat bilan eshitishni, asar matnini buzib hikoya qilgan joylarini payqashni o'rgatish davom ettiriladi.

O'quvchilarda suratlar bo'yicha hikoya tuzishni o'rgatayotganda, avvalo, ularning mustaqil fikrlashlariga, suratda tasvirlangan voqealarga o'z munosabatlarini bildirishlariga imkon yaratish kerak. Shu bilan birga, rasmda aks ettirilgan mavzuli voqeaga qarab ilgari nima bo'lgani va keyin nima bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritishga undash. Tabiat manzaralari aks ettirilgan suratga qarab, undagi go'zallikni, nafislikni ifodalay oladigan tasviriy so'zlar, o'xshatish va sifatlashlar ishtirokida gap tuzishga o'rgatib borish ham amalga oshiriladi.

Badiiy adabiyotni tanishtirish orqali monologik nutqni o'stirishning yuqoridagi dastur vazifalari va mazmuniga ko'ra boshlang'ich ta'limo'quvchilari hikoya qilib berishning quyidagi turlarini egallashlari lozim:

1.O'qigan ertak va hikoyalarni qayta hikoya qilib berish.

2.O'qish darslarida birinchi marta o'qib berilgan hikoya va aytib berilgan qisqa ertaklarni qayta hikoya qilib berish.

3.Ko'rib turgan narsa-buyumlar: o'simliklar, kiyimlar, idish-tovoqlar, mebellar va hokazolar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish.

4.Voqeaviy-syujetli rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish.

5.O'quvchilar o'z tajribalari asosida xotiradan hikoya qilib berishlari.

2.2.Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy adabiyotni hikoya qilib berishga o'rgatishda maxsus usullardan foydalanish.

O'quvchilarni hikoya qilishga o'rgatishda maxsus usullardan foydalaniladi. Ulardan asosiylarini aytib o'tamiz:

1. Hikoya namunasini berish usuli. Bunda qandaydir buyumni (predmetni) yoki voqeani jonli va qisqa tasvirlanadi. Bu usul birmuncha yengil usul bo'lib, o'qituvchi bolalarga narsa-buyum, rasm, voqea haqida tayyor hikoya aytib beradi, bolalar hikoyani tinglab, o'z hikoyalari uchun mazmun tanlaydilar, uning hajmini, izchilligini belgilab oladilar. Shuning uchun bu usul o'quvchilarni hikoya qilib berishga o'rgatishga yordam beruvshi ta'limiy usul bo'lib hisoblanadi.

O'qituvchining namuna hikoyasidan o'quvchilarni hikoya qilib berishga o'rgatishning dastlabki bosqichlaridan, shuningdek, yangi vazifa qo'yilganda yoki hikoya qilib bera olmaydigan bolalarga yordam berishda foydalaniladi. O'qituvchining namuna hikoyasini yomon hikoya qiladigan 1 – 2 o'quvchi takrorlashi mumkin.

Namuna hikoya usulidan darsning borishida foydalanish kerak. Undan darsning oxirida foydalanish esa hech qanday ijobiy natija bermaydi, chunki o'quvchilar namuna hikoyaga taqlid qila olmaydilar, o'z nutqlarida undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

2. Hikoya rejasini berish usuli. Hikoya rejasi 2 – 3 asosiy savoldan iborat bo'lib, fikrning ketma-ketligini va mazmunini belgilaydi. Namuna usulidan foydalanib hikoya qilib berish bilan bog'liq 2–3 darsdan keyin hikoyani reja asosida so'zlab berishga o'rgatish mustaqil yetakchi usullardan biri bo'lib qoladi. Bolalar hikoyasi xilma-xil bo'lishi uchun o'qituvchi oldindan asosiy va qo'shimcha reja tayyorlab qo'yishi kerak. Bu dars jarayonida savollarni almashtirish bolalar diqqatini faollashtiradi.

O'qituvchi hikoya qiluvchining mavzudan yoki rejadan chetga chiqib ketganini o'zi ko'rsatibgina qolmay, balki bolalarni o'rtog'ining hikoyasini nazorat qilib borishga jalb qilishi kerak.

(Hozir nima haqida hikoya qilib berish kerak? Hammaga tushunarli bo'lishi uchun avval nimani hikoya qilib berish yaxshiroq?)

Hikoya namunasini berish hikoya qilishga o'rgatishning eng yengil usuli, hikoya ryejasini berish usuli esa ancha qiyin. Bu usul murakkab bo'lishiga qaramay, o'quvchilarni hikoya qilishga o'rgatishda keng tarqalgan muhim usul hisoblanadi.

3. Rejani jamoa bo'lib muhokama qilish usuli. Reja asosida hikoya tuzish va uning mazmunini boyitishni uyengillashtirish maqsadida, rejani jamoa bo'lib muhokama qilish tavsiya etiladi. Bu usuldan maktabga tayyorlov guruhlarida va 1-2-sinflarda ryeja asosida hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida foydalaniladi. Masalan, o'qituvshi o'quvchilarga shunday yo'llanma beradi: "Biz qanday qilib jo'ja boqqanimizni gapirib bering. Jo'jalar qayerdan paydo bo'ladi? Ularni qanday parvarish qildingiz? Jo'jalar katta bo'lganda, ular qanday bo'lishdi?"

Bu usulning mohiyati nimadan iborat?

Hikoyani tuzishga qadar o'qituvchi bolalar bilan birgalikda rejadagi ayrim savollarni muhokama qiladi, ya'ni hikoya mazmunining xilma-xil bo'lishi imkoniatlarini ko'rsatadi. Rejadagi bir savolga (masalan, "Bola qanday mushuksha topib oldi?") bir necha o'quvchi joyida o'tirgan holda javob byerishini taklif etadi. Bolaning joyida o'tirgan holda javob berishi - bu hali hikoya emas, balki bir yoki bir necha gapdir. Hikoya ryejasini jamoa bo'lib muhokama qilish usuli esa bolalarning tashabbuskorligini jonlantiradi, faollashtiradi, bolalarni murakkab jarayon hisoblangan mustaqil hikoya tuzishga o'rgatadi.

4. Jamoa bo'lib hikoya tuzish usuli.

Bu usul o'ziga xos bo'lib, undan o'quvchilarni ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishda foydalaniladi. Oldindan belgilab qo'yilgan hikoya rejasini ketma-ket muhokama qilish jarayonida o'qituvshi va o'quvchilar ayrim javoblarni tinglaudilar, ulardan qaysi biri yaxshiroq ekanligini muhokama qiladilar.

Tarbiyachi ularni o'ulab topilgan hikoyaning boshlanishi sifatida takrorlaudi. So'ngra navbatdagi eng yaxshi savol tanlanadi, o'qituvchi esa aytilgan eng yaxshi jumalarning va o'zining gapini birlashtirib, kichik hikoya tuzadi.

Oxirida hikoya o'qituvchi tomonidan takrorlanadi, so'ngra 2–3 o'quvchi takrorlaudi. Bu usulning mohiyati shundaki, dars davomida barsha o'quvchilar faollik ko'rsatishadi, ularning xayollari asta-sekinlik bilan shakllanadi. Biroq bu usulning bir qator kamchiliklari mavjud: o'quvchilarning nutq faoliyati jumalarni tuzish, so'zlarni tanlash bilangina chegaralanadi, ular monologik nutqni rivojlantirish ustida kam mashq qiladilar. Shuning uchun bu usuldan foydalanish chegaralangan.

5.Hikoyani qismlar bo'yicha tuzdirish usuli.

Ayrim dars mashg'ulotlarida hikoyani qismlar bo'yicha tuzdirish usulidan foydalanish mumkin, bu usul hikoya tuzishni yengillashtiradi, chunki topshiriq hajmi kamayadi. Shuningdyek, dars ancha qiziqarli va xilma-xil bo'lib, hikoyalar to'liq va suqur mazmunga ega bo'ladi, ko'p bolalardan so'rash imkoniyati vujudga keladi.

Mazmuni alohida qismlarga yengil ajraladigan rasmlarni qism bo'yicha tasvirlash mumkin. Masalan, o'quvchilar ushbu rasmlarni qism bo'yicha tasvirlashlari mumkin: "Tovuqlar", "Mushuk bolalari bilan", "Echki bolalari bilan", "Sigir buzog'i bilan", "Qishki o'yinlar" va hokazo.

O'qituvchi tasviri hikoya ushun mavzu taklif etishdan avval rasmni kichik-kichik qismlarga ajratib chiqadi. Masalan, "Quyonglar" degan mavzuda tasviriy hikoya tuzishda o'qituvchi bolalarni shundau ogohlantiradi: "Quyong haqida hikoya qilamiz, ammo hammasini bir yo'la emas, balki quyonglar haqida hamma narsani xotirlash (esga tushirish) ushun tartib bilan gapiramiz". So'ngra har bir qism uchun reja taklif etish mumkin. Masalan: "Hozir, o'quvchilar quyongni tanasi nima bilan qoplanganligini, uning tumshug'i qanday yekanligini, u qandau harakat qilishini (uurishini) eslaymiz".

Bu reja asosida 2–3 bola hikoya qilib bergach, navbatdagi qismga o'tiladi: "Bizning quyonlarimiz qayerda yashashini, katagida nimalar borligini, ular nima uchun kyerakligini garirib byering". So'ngra quonning oziqlari, kim ularga g'amxo'rlik qilishi va hokazolar haqida hikoya qilib berish mumkin. Dars oxirida nutqi yaxshi, hikoya qilish malakasi riujlangan bir o'quvchi rasmda tasvirlangan narsalar haqida batafsil gapirib berishi mumkin.

6. Savollar berish usuli.

Bu usul hikoya qilishga o'rgatishda ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Savollar, asosan, hikoya aytib berilgandan keyin aniqlik kiritish va to'ldirish maqsadida beriladi.

7. Aytib turish usuli.

Hikoya qilish jarauonida o'quvchi qandaydir xatoga yo'l qo'yishi yoki ayrim joyini esdan chiqarganda so'z yoki gapni aytib turishdan foydalanish o'rinli. O'quvchining xatosini to'g'rilash yoki hikoyaning esdan chiqargan joyini aytib turish yetarlicha baland ovozda, samimiy bo'lishi kerak. O'quvchi o'qituvchining tuzatishini takrorlashi shart emas, aks holda u o'z hikoyasining davomini yo'qotib qo'yadi. O'quvchilar hikoya qilib berayotganlarida ular nutqidagi xatolarni e'tiborsiz qoldirish kerak emas - xatoni hikoya qilish jarayonida to'g'rilash mumkin, agar ko'pchilik o'quvchilarda xato ushraudigan bo'lsa, o'qituvchi ular bilan lug'at ustida ishlash yoki grammatik to'g'ri nutqni, nutqning tovush madaniyatini shakllantirish uchun tashkil etiladigan mashg'ulotlarda shug'ullanadi.

8. Baholash usuli.

Bu usuldan foydalanishning asosiy maqsadi shundaki, baho faqat hikoyasi baholanayotgan o'quvchigagina ta'sir etib qolmasdan, balki hikoya tnzishi lozim bo'lgan boshqa bolalarga ham ta'sir qilsin. Shuning uchun bu usuldan dars mashg'uloti davomida foydalaniladi. Dars oxirida berilgan baho, o'z mohiyati bilan foydasizdir, bundan tashqari, barcha tinglangan hikoyalarning sifati qanday

bo'lganligini bola esda saqlashda qiynaladi, darsning oxirida ular toqatsizlanadilar va buning natijasida o'qituvchining ko'rsatmalarini idrok eta olmaydilar. Har bir hikoyani batafsil baholash shart emas, biroq ayrim hikoyalardagi biror ahamiyatli tomonni, izchillikni, yangilikni yoki kamchiliklarni (lug'ati, ovoz kuchi, qomatini noto'g'ri tutish va hokazo) aytib o'tish kerak.

Adabiy asarlarni qayta hikoya qilish. Qayta hikoya qilish - hikoya qilishning birinchi turi hisoblanadi. Qayta hikoya qilish tinglangan badiiy asarlarni ma'noli og'zaki nutqda takroriy aytishdir. Qayta hikoya qilish o'quvchilar badiiy nutqining rivojlanishiga, emotsional va obrazli so'zlarni tanlashga o'rgatadi, jonli so'zni egallashga yordam beradi, asarni tinglay bilish, uning mazmunini tushunish ko'nikmasini o'stiradi, ularni bayon qilishdagi izchillikni, muallifning ifoda usulini eslab qolishga, asarni tushunib, jamoa oldida og'zaki aytib byera olish malakasini shakllantiradi.

Qayta hikoya qilishga o'rgatish samarali bo'lishi uchun, eng avvalo, qayta hikoya qilish ushun matnlarni to'g'ri tanlash lozim.

Har bir asar o'quvchilarda jamiyatimiz uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalashi va rivojlantirishi kerak. Qayta hikoya qilish uchun asar tanlanganda quyidagi talablarga amal qilish kerak: yuqori badiiy qimmatga, g'oyaviy–mantiqiy yo'nalishga ega bo'lishi, jo'shqinligi, fikrning yangiligi va bayonning obrazlilik, voqyealarning ketma-kyetligi, mazmunining qiziqarliligi, shu bilan bir qatorda, badiiy asarning hajmi va uning o'quvchi yoshiga mos kelishini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu talablarga xalq ertaklari, hajmi uncha katta bo'lmagan hikoyalar misol bo'la olishi mumkin. Shuningdek, dasturda o'quvchilarning qayta hikoyalariga bir qancha talablar qo'yilgan:

- 1) ma'nosiga tushungan holda, ya'ni matnni to'liq tushunib hikoya qilish;
- 2) asarni to'liq bayon etish, ya'ni asardagi muhim joylarini tashlab ketmasdan bayon etish;

- 3) izchillik (ketma-ketlik) bilan hikoya qilish;
- 4) muallif matnidagi lug'atlardan va iboralardan foydalanish, ayrim so'zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirish;
- 5) to'g'ri ohangdan foydalanish, uzoq rauzalarning bo'lmasligi;
- 6) og'zaki nutq madaniyatiga e'tibor berish: qayta hikoya qilayotganda gavgani to'g'ri tutish, tinch turish, tinglovchilarga murojaat qilish, nutqning intonatsion ma'nodorligidan (ifodaliligidan) foydalanish, uyatarlisha baland ovozda tovushlarni aniq talaffuz etish,

Ushbu talablarning barshasi bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, bulardan birortasini ham e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ertaklar o'qitish orqali bog'lanishli nutqini o'stirish.

Bizning Vatanimiz O'zbekiston bo'limi.

“Ona- Vatan. Vatan – Ona”. Dars ishlanma.

Darsning borishi:

1-bosqich.Tashkiliy qism.

1. Salomlashish, o'quvchilarni darsga jalb qilish.

O'qituvchi: Bolajonlar hozir qaysi dars?

O'quvchilar xor bo'lib:

Odob ahloqdan ta'lim olgaymiz,

Ustoz o'gitin yodda saqlaymiz.

O'qituvchi: Darsimiz shiori nima?

O‘quvchilar xor bo‘lib:

Odobli bola hammaga manzur,

Uni ko‘rganda qilasan huzur.

O‘qituvchi: Navbatchining hisobotini eshitamiz.

Navbatchi sana, davomat haqida hisobot beradi.

O‘qituvchi: Bolalar, bugun biz “Ertaklar olamiga”ga sayohat qilamiz. Siz qanday ertaklarni bilasiz?

O‘quvchilar bilgan ertaklarini sanashadi.

Ma’naviyat daqiqasi.

O‘qituvchi: Hozir men sizga rus xalq ertaklaridan “Bo‘g‘irsoq” ertagini aytib beraman. Lekin mana bu savollarimga javob berishingiz kerak.

Savollar:

1. Ertaklar qaysi son bilan boshlanadi? **(1)**
2. Eng katta bir xonali son qaysi? **(9)**
3. Alisher Navoiy bobomiz nechanchi fevralda tug‘ilgan? **(9)**
4. Eng kichik bir xonali son qaysi? **(1)**

O‘quvchilar savollarga javob berishadi.

O‘qituvchi: Bolalar qaysi son kelib chiqdi? Vatanimiz tarixida shu yili qanday qutlug‘ sanalar esda qoldi?

1- o‘quvchi: 31-avgust – Vatanimiz mustaqil beb e‘lon qilindi.

2- o‘quvchi: 1- sentabr – Mustaqillik bayrami deb e‘lon qilindi.

2-bosqich. O‘tgan mavzuni so‘rash.

O‘qituvchi: Barakalla. Ana endi ertagimizni boshlaymiz. Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda chol bilan kampir bor ekan. Chol bir kuni kampirga:

- Kampirjon, bo‘g‘irsoq pishirib ber, - debdi.
- Pishirib bermayman, - debdi kampir.
- Nima uchun pishirib bermayman deyapsan? – debdi chol.
- Agar mana bu bolalar odobnoma darsi nimalarni o‘rgatishini aytib bersagina pishirib beraman, - debdi kampiri.

Bolalar, boboga yordam beramizmi?Qani odobnoma darsida nimalarni o'rganayotganligimizni aytib beringlar.

O'quvchilarbilganlaricha javob berishadi Masalan:

O'quvchi: O'qish fani bizga salomlashish, kiyinish, yurish, so'zlashish odoblarini o'rgatadi.

O'qituvchi: Barakalla bolalar. Shunday qilib kampir bo'g'irsoq pishirishga ketibdi. Bo'g'rsoq nimadan tayyorlanadi?

O'quvchilar bilganlaricha javob berishadi. O'qituvchi javoblarni to'ldirib boradi.


Bolalar, onaxon sizga yana bir topshiriq berib ketdi. Bo'g'irsoq pishgunicha o'quvchilar mana bu bo'g'inlardan so'zlar tuzsin deb shart qo'ydi.

BO'G'INLARNI YIG'!

Va	bu	mu
go	be	re
di	yo	qad
tan	yuk	das

O'quvchilar bo'g'inlardan so'zlar tuzishadi.

O'qituvchi: Sizlar so'z tuzguningizcha kampir mana bu bo'g'irsoqni pishirib kelibdi va unideraza tokchasiga qo'yib ketibdi. Chol boboni ishi tugayvermabdi. Bo'g'irsoq turaverib zerikibdi va derazadan



bir sakrab pastga tushibdi. O‘rmon oralab,
qo‘shiq kuylab keta boshlabdi.

Dam olish daqiqasi

Men bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq, surpadagi un-urvoq.

Supurishib oldilar, xamir qilib qordilar.

Pishirdilar tovada, sovutdilar havoda,

Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim buvimdan.

Bolalar ushbu qo‘shiqni jismoniy harakatlar bilan bajarishadi

Shunda oldidan quyon chiqib qolibdi va bo‘g‘isoqqa:

- Salom bo‘g‘irsoqjon yaxshimisan? Qornim ochib turibdi seni yeyman,- debdi.
- Meni yemagin, senga qo‘shiq aytib beraman, - debdi bo‘g‘irsoq.
- Qoshiq kerak emas, bolalar mana bu konvertdagi savollarga javob berishsa seni yemayman,- debdi quyoncha.


Bolalar bo‘g‘irsoqqa yordam beramizmi?

O‘tilgan mavzular yuzasidan savollar:

1. 1-sinfda qanday mavzularni o‘tgan ediniz?
2. Inson o‘z oilasini nima uchun yaxshi ko‘radi?
3. Odobli bola qanday bo‘ladi?
4. Yo‘lda yurganda nimalarga e‘tibor berish kerak?
5. Vatan deganda nimani tushunasiz?

O‘quvchilar savollarga javob berishadi.


O‘qituvchi: Bo‘g‘irsoq yo‘lida davom etibdi, oldidan ayiq chiqibdi:



Bo'g'irsoqjon yaxshimisan? Juda vaqtida uchraganda, qornim ochib turgandi seni yeyman,- debdi.

- Meni yemagin, senga qo'shiq aytib beraman, - debdi bo'g'irsoq.
- Qoshiq kerak emas, bolalar mana bu topshiriqlarga javob berishsa seni yemayman,- debdi ayiq. Bolalar bo'g'irsoqqa yordam beramizmi?

–



O'quvchilar topshiriqni bajarishadi.

O'qituvchi: Shunday qilib ayiq ham bo'g'irsoqni yemabdi. Bo'g'irsoq yana yo'lida davom etibdi. Yurib-yurib charchabdi. O'tirib dam olmoqchi bo'libdi. Bolalar ham dam olishsin.

Dam olish daqiqasi.

Assalom Quyosh bobo,
Hammaga kerak bobo.
Doim kulub turasiz,
Yerga hayot berasiz.
Ta'zim aylaymiz sizga,
Nurli Quyosh bobojon,
Siringiz oching bizga.
Sirli Quyosh bobojon.

Qo'shiq jismoniy harakatlar bilan kuylanadi



3-bosqich. O'tgan mavzuni mustahkamlsh.

O'qituvchi: Bo'g'irsoq yo'lida davom etibdi, uning oldidan bo'ri chiqib qolibdi va bo'g'irsoqqa:



- Bo'g'irsoq yaxshimisan? Ochqab turgandim seni yeyman,- debdi.

-Meni yemagin, senga qo'shiq aytib beraman, - debdi bo'g'irsoq.

-Qo'shiq kerak emas, bolalar Vatan so'zining ma'nosini aytib beishsa seni yemayman,- debdi bo'ri.

Bolalar savollarga javob beramizmi?

3-bosqich. O'tgan mavzuni mustahkamlash.

1-o'quvchi

**Vatan – bu bizning ota-onamiz bilan
maza qilib yashayotgan joyimizdir**

2-o'quvchi

Vatan- bu mening uyim, mahallamdir

3-o'quvchi


Mening Vatanim O'zbekiston

4-o'quvchi

Mening Vatanim Samarqand viloyati

4-bosqich. Yangi mavzu

O‘qituvchi: Barakalla bolalar.Bo‘g‘irsoqqa juda katta yordam berayapsiz.Shunday qilib bo‘g‘irsoq yana yo‘lida davom etibdi. Oldidan tulki chiqib qilibdi va bo‘g‘irsoqqa shunday bebdi:



- Bo‘g‘irsoq yaxshimisan? Qornim ochib turibdi seni yeyman.
- Meni yemagin, senga qo‘shiq aytib beraman, - debdi bo‘g‘irsoq.
- Qo‘shiq kerak emas, bolalar mana bu konvertdagi topshiriqqa javob berishsa seni yemayman,- debdi tulki. Bo‘g‘irsoqqa yordam beramizmi?

Konvertdagi topshiriq quyidagicha:

1. Tursunboy Adashboyevning “Vatan– Ona” she’rini ifodali o‘qib, savollarga javob bering.

Vatan– Ona

Sen tug‘ilgan

Qutlug‘ xona.

Aziz diyor

Pok ostona.

Qiyosi yo‘q

Bu yagona.


Senu menga

Vatan – Ona.
Shunday go‘zal
Ulug yurtkim,
Tuproq‘ini
Ko‘zga surtgin.

1. Shoir Vatanni nimaga o‘xshatgan?
2. Qiyosi yo‘q deganda nima nazarda tutilgan deb o‘ylaysiz?
3. Vatanimiz milliy boyliklarini sanab bering.

5-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash.

“Tarmoqlash”



6-bosqich. Dars yakuni.

O‘qituvchi: Bo‘g‘irsoq aylanib-aylanib yana chol bilan kampirning uyiga kelibdi va shunday debdi:


– Salom bobojon, salom buvijon, men yana qaytib keldim. Bolalar menga yordam berganligi uchun o‘rmondagi hayvonlar meni yeyisha olmadi. Endi men sizning dasturxoningiz ko‘rki bo‘laman. Menga yordam bergan bolalarga esa mana bu bo‘g‘irsoqchalarimdan beraman.

Faol qatnashgan o‘quvchilar bo‘g‘irsoqchalar bilan rag‘batlantiriladi.



Uyga vazifa.

Vatan haqida maqollar yodlab kelish.

Rag‘bat kartochkalari



TARMOQLASH



Ushbu dars ishlanmamda, Vatanning inson hayotida naqadar muhim o‘rinni egallashini yoritmoqchiman. Tursunboy Adashboyevning “Vatan-Ona” she’ri orqali o‘quvchilarga Vatanimizning naqadar aziz maskan ekanligini savol-javoblar orqali tushuntirishga harakat qilganman. Shu bilan birga bolalarning yod olish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari ham rivojlantiriladi.

Tashkiliy qismda o‘quvchilarning Vatan ramzlari haqidagi ma’lumotlari kengaytiriladi. O‘quvchilarni darsda zerikib qolishlarini oldini olish maqsadida “Tarmoqlash” didaktik o‘yini, dam olish daqiqalarini ham tashkil qilganman. Savol – javob, suhbat metodi zukkolikka, topqirlikka undaydi. Dars davomida o‘quvchilarni tabiatga, hayvonlarga bo‘lgan mehr muhabbatlarini yanada oshirishga ham e’tibor qaratganman.

Kelajakda ham o‘quvchilarni Vatanimizni sevishtirishga o‘rgatish, go‘zal tabiatimizdan bahra olishlari uchun turli o‘yinlardan foydalanib darslarimni tashkil etishni maqsad qilib qo‘ydim.

2.4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bog‘lanishli nutqini o‘stirishda inretfaol usullardan foydalanish.

Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o‘zaro harakati ta’sir ostida bilimlarni o‘zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo‘llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari– norasmiy bahs– munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o‘qish, o‘rganish, seminarlar o‘tkazish, o‘quvchilarni tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Interfaollik, bu – o‘zaro ikki kishi faolligi, ya’ni, bundan o‘quv- biluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki

o`qituvchi – o`quvchilarning o`zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik – o`zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o`quvchi – o`qituvchi, o`quvchi – o`quvchi (sub'yekti –sub'yekti) suhbatlarida sodir bo`ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o`quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o`quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarni ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o`quvchi chetda qolmay, eshitgan, o`qigan, ko`rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo`ladilar . O`zaro fikr almashish jarayoni hosil bo`ladi . Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o`zaro do`stona munosabatlar shakllanadi .

Boshlang`ich ta`limda o`quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiyatlariga ko`ra didaktik o`yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo`llanilmoqda. Agar o`qitish jarayonida har bir o`quvchi o`zining o`zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo`lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta`lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta`lim jarayonlarini didaktik o`yinlar orqali amallarga oshirish haqida fikr yuritamiz:

Interfaol o`yinli metodlar o`quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o`quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Interfaol o`yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqlli) va harakatli hamda aralash o`yinlardan iborat. Bular o`quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko`nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi .

Bu metod o`quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o`ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof –muhit,

hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi .

Ta'lim – tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turi yo'lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rol, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda talil qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mutaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik , sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi.

Interfaol o'yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi.

-ishtirokchilarni tarkibi bo'yicha, ya'ni o'g'il bolalar, qiz bolalar yoki arlash guruhlar uchun o'yinlar :

-ishtirokchilarning soni bo'yicha –yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzda o'yinlar :

- o'yin jarayoni bo'yicha fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlar asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan;

-vaqt me'yori bo'yicha –dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan o'yinlar.

Ayrim didaktik o'yinli dars shakllari:

-ishchanlik o`yini darsi –mavzu bo`yicha masalalarni hal qilish jarayonida o`quvchilarning faol ishtirok etishini ta`minlash orqali yangi bilimlarni o`zlashtirish mashqi;

-rolli oyin darsi –mavzu bo`yicha masalarni o`rganishda o`quvchilarga oldindan ma`lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rollarni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustahkamlash;

-teatrlashtirilgan dars- mavzu bilan bog`liq sahna ko`rinishlarini tashkil etish orqali dars mavzusi bo`yicha chuqur, aniq ma`lumotlar berish;

-“Kim oshdi savdosi ” darsi- o`quv fani, ayrim bo`limi bo`yicha bilimlarini har bir o`quvchi qanchalik ko`proq bilishini namoyish etish ;

-yarmarka darsi- mavzuni bo`laklarga bo`lish oldindan o`zlashtirgan o`quvchilarning o`zaro muloqatlari asosida qiziqarli tushuntirish orqali o`tiladigan darslar ;

-o`yin darsi- mavzuni sahnalashtirilgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo`lib, o`quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

-integral(integral)dars - boshqa darslarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo`lgan mavzular bo`yicha tashkil qilingan dars bo`lib, o`quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta`lim jarayonidagi faolligini taminlaylik.

Bularning bari o`quvchilarga fanlararo bog`liqlikni o`rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to`liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol usullarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O`quvchilarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o`rgatish;
2. Muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish;

3. O‘z-o‘zini fikrlashga majbur etish;
4. Faollashtirish;
5. O‘quvchilarni tashkilotchilik va yo‘naltiruvchanlikka undash;
6. Do‘stona munosabatlarni shakllantirish;

Interfaol metodlarda o‘qitishning mohiyati quyidagicha:

- o‘rgatuvchi ham o‘rganuvchi ham ma’lumotlar bilan faol ishlashi;
- o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi va o‘rgatishi;
- o‘qituvchiga «o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish uchun» xizmat qilsa, o‘quvchilarga esa, «fikrlashni o‘rganishlari uchun» xizmat qilishi;

Interfaol usullardan foydalanish:

1. Individuallashtirish.
2. Kichik guruhlargaaajratish.
3. Tabaqalashtirish.
4. O‘rgatish va o‘rganish jarayonida demokratik, do‘stona muhitni yaratish.
5. O‘zaro muloqot, hamkorliklikni tashkil etish.

Interfaol metodlarni qo‘llashda foydalaniladigan vositalar:

1. Darsliklar, qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar.
2. Texnika vositalari.
3. Tapqatma materiallar.
4. Multimediyalar.
5. Slaydlar.
6. Ko‘rgazmali qurollar.

7. Didaktik o'yinlar.

O'quvchi shaxsiga qaratilgan ta'lim, o'quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, mustaqilligini, erkinligini ta'min etish, qiziqishlari asosida (motivatsiya) ish yuritish, ichki imkoniyatlarni ishga solish, o'z qiziqishlari orqali qo'shimcha ta'lim olishga yo'llash, o'z- o'zini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatishda “Davom ettir”, “Zanjir” interfaol o'yinidan foydalanish.


Quyida o'z tajribamdan **“Davom ettir”, “Zanjir”** interfaol o'yinlari keltirilmoqda.

“Davom ettir”interfaol o'yini

O'qituvchi birorta so'zni aytadi, o'quvchilar uni davom ettiradilar. So'zlar mazmunan bir oilaga mansub bo'lishi shart.

Masalan:

1. Ohak, ko'mir, bo'r, tuproq, marmar, neft (foydali qazilmalar).
2. Yomg'ir, do'l, qor, shamol, bo'ron, tuman (tabiat hodisalari)




“Zanjir” interfaol o`yini.

Tartiboti:

1. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi.
2. O'qituvchi (yoki o'quvchi) shaxs yoki narsaning xususiyatlarini aytadi guruh a'zolari nomini topishi kerak.
3. Agar nom topa olmasa zanjir uzilgan hisoblanadi va shu guruh o'yindan chiqariladi.

Masalan:



O`tkazilgan tajriba -sinov natijalari shuni ko`rsatadiki, agar darslar so`z, tushuntirish orqali olib borilsa, o`zlashtirish 10% ni, ko`rsatish, namoyishlar orqali tashkil etilsa, 50% ni, ta`lim jarayoni o`quvchilarning shaxsiy ishtiroki faolligida kechsa, o`zlashtirish sifati va samaradorligi 90% ni tashkil etadi. Agar o`qituvchi interfaol ta`lim mazmunini va mohiyatini, uning metodlarini o`qibo`rganib, o`zlashtirib, o`z pedagogik faoliyatiga joriy qila olsa, takomillashgan Davlat ta`lim standartlarini va modernizatsiya qilgan o`quv dasturlarini to`la o`zlashtirishlarini kafolatlaydi, sifat va samaradorlikka erishishini ta`minlaydi. Demakki, har bir o`qituvchi o`z o`quvchisini erkin fikrlovchi shaxs bo`lishini istasa bolalarni kop`roq erkin fikrlashlariga imkoniyat berishi, interfaol metodlardan ko`proq fo`yдалanishi lozim.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqot ishini yozish jarayonida bizo'quvchilarning nutqi va fikrlash qobiliyatini o'stirish bilan birga, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga ham, o'z fikrlarini saviyalariga mos savodli yoza olishlariga alohida e'tibor berishimiz kerakligi haqida so'z yuritdik.

Garchi, kishi ehtiyojlari azaldan agar u boshqa odamlar bilan birgalikda harakat qilgan holda o'zaro munosabatga kirishgan taqdirdagina qondirilishi mumkin bo'lib kelgan. Bu hol sub'yektda uning uchun nima muhim va ahamiyatli ekanligini aytish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Bola maktabga kelib fanlarni o'zlashtirgani sayin bu jarayon yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi hamda aniq – ravshan nutqni egallay boshlaydi, birinchi sinfning oxiriga yetganda bu holatning asosiy belgilari paydo bo'ladi. Murakkab talaffuzni talab qiladigan va oson aytilmayadigan so'zlarni talaffuz qila oladi, bir-biriga mantiqan bog'langan jumlar tuzadi hamda matn tayyorlaydi. Bu yoshdagi bolalar so'zlardagi hamoahanglikni konkret shaxslarga – ona – ota – buviga bog'laydilar va o'quvchiga ana shu ohangdosh so'zlarning uning yaqin atrofidagi aniq shaxslar bilan bog'lanishi qaror topishiga yordamlashadilar. O'quvchi so'zni talaffuz qilarkan, istaganiga erishishga - e'tibor qilishiga, erkalatilishiga, e'tiborni tortish kabilarga erishishiga intiladi. Bunday har bir hodisada so'z o'quvchi uchun aloqa vositasiga aylanadi. Qo'llaniladigan so'zlar soni borgan sari to'xtovsiz orta boradi va boshlang'ich sinflarning keyingi bosqichlarida o'quvchi nutqidagi so'z boyligi haddan ziyod kengayibgina qolmasdan, balki tilning grammatik shakllarini ilmiy jihatdan to'g'ri ishlatishi ham mumkin bo'lib qoladi, jumlar murakkablashib va uzunroq qilib tuzila boshlaydi. O'quvchining tili maktab yoshigacha bo'lgan yillar davomida boyib boradi. Maktabda o'qish, yozish, keyinroq esa til va adabiyot darslarida o'quvchilarda muloqot vositasi sifatida tilga va munosabat jarayoni sifatida nutqqa ongli munosabat shakllantiriladi. Til o'qituvchi tomonidan maxsus uyushtirilgan tahlil predmetiga aylangan holda o'quvchilar oldida ijtimoiy jihatdan shakllangan qonunlar ta'siriga bo'ysunadigan murakkab belgilar tizimi sifatida

namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda sinfda, asosan, badiiy adabiyot mashg'ulotlarida, shu bilan birga yozuv darslarida ham va sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishning nutq o'stirish bolalarni hikoya qilishga o'rgatishda roli kattadir. Bu o'rinda ham o'qituvchining erkin hamda aniq – ravshan nutqi bolalar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi. Yuksak nutq madaniyati - o'qituvchi tomonidan vaqtdan oqilona foydalanishning muhim sharti hisoblanib bunda o'z vaqtida o'quvchilarni hikoya qilishga o'rgatish o'qituvchidan talab qilinadi. Demak, nutq faoliyati turli davrlarda o'ziga xos shakllanib, takomillashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I.Siyosiy va rahbariy adabiyotlar

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat □ yengilmaskuch. □ T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – usuvor maqsadimizdir” “Ishonch”, 2010-yil, 8-dekabr. 4 b.
3. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” “Ma'naviyat”, Toshkent. 2008 -yil. 176 b.

II. Ilmiy nashrlar

1. Ta'lim taraqqiyoti. Axborotnoma. 1- maxsus son, 1999 .
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. // Barkamol avlod □ O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. □ T.: SHarq, 1997.
3. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 7-maxsus son. □ T.: Sharq, 1999.
4. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshlang'ich. ta'lim jurnali. □ Toshkent, 2005. □ №5.
5. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshlang'ich ta'lim jurnali. □ Toshkent, 2005. □ №5
6. R. Safarova. Nutqiy ko'nikmalarni tekshirish asoslari. // Boshl. ta'l. jurnali. □ Toshkent, 1997. □ №5.

Darslik va o'quv qo'llanmalari

1. Qodirova F., Qodirova M. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent – 2006 yil.
2. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2005
4. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Toshkent, “Sharq” 2004
5. Qodirova M.R., Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2006

6. Jo'raqulov R. "O'quvchilar nutqini o'stirish". Samarqand, 1994
7. A. Zunnunov. Adabiyot o'qitish metodikasi. □ T.: O'qituvchi, 1992.
8. J. G'. Yo'ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. □ T.: O'qituvchi, 2004.
9. Q. Abdullaeva. Birinchi sinfda nutq o'stirish. □ T.: 1980.
10. Shodiyeva Q. Nutq o'stirish uslubiyati. Toshkent.: "O'zbekiston" 1999
11. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. Toshkent – "O'zbekiston" –2001
12. Abdullayeva Q. Savod o'rgatish metodikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1995
13. K. Qosimova, S. Fuzailov, A. Ne'matova. Ona tili (2-sinf uchun darslik). □ T.: CHO'lpon, 2009.
14. M. Xudoyberganova, M. Muxtorova. 3-sinfda ona tili darslari. □ T.: O'qituvchi, 2005.
15. M. Umarova, SH. Hakimova. O'qish kitobi (3-sinf uchun darslik). □ T.: CHO'lpon, 2009.
16. M. Umarova, SH. Hakimova. O'qish darslari (3-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). □ T.: CHO'lpon, 2008.
17. M. Xudoyberganova. Bayonlar to'plami. □ Toshkent: 1995.
- M. G'ulomov. CHiroyli yozuv malakasini shakllantirish. □ T.: O'qituvchi, 1992.
18. R. Ikromova, X. G'ulomova, SH. Yo'ldosheva, D. SHodmonqulova. Ona tili (4-sinf uchun darslik). □ T.: O'qituvchi, 2009.
19. R. Safarova. Savod o'rgatish darslari (Alifbeni o'qitish bo'yicha metodik qo'llanma). - T.: Ma'naviyat, 2003.
20. S. Matchonov, A. SHojalilov, X. G'ulomova, SH. Sariev, Z. Dolimov. O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). □ T.: Yangiyul poligraph service, 2009.
21. S. Matchonov, X. G'ulomova. Nutq madaniyati. //Boshl. ta'l. jurnali. □ Toshkent, 2000. □ №1. 8-10-betlar.
22. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008.

IV. Internet materiallari

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

www.tdpu.uz